

"XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR"

Konferensiyasi



Research Science and
Innovation House

BIZNING YO'NALISHLARIMIZ:

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

INDEKSLAYMIZ:



OpenAIRE

zenodo



Google
Scholar



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM)



+998 88 808 21 07

**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi:

28.02.2025-yil.

Ushbu to'plamda **«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 02-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Konferensiya tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani , texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.



Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O‘zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O‘zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo‘rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.



Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



**ZAMONAVIY TERGOV AMALIYOTIDA INSON HUQUQLARINI
TA'MINLASH BORASIDA ADVOKATURA INSTITUTINING ROLI.
ADVOKATURANING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI****Kushmakov Rasulbek Toshmatjonovich**

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
"Prokurorlik faoliyati" yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Ilmiy rahbar: Kayumov Baxtiyor Erkinjonovich

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Bakalavriyat fakulteti boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
adliya katta maslahatchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari va tergovda advokatura institutining rolini tahlil qilinadi. Advokatlarining tergovning dastlabki bosqichlarida ishtiroki, himoya qilish, dalillarni to'plash va baholash, tergov organlari bilan hamkorligi kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, advokatura, tergov, himoya, konstitutsiyaviy asoslar, qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, muammolar, yechimlar.

Аннотация: В данной статье анализируются конституционные основы защиты прав человека в Узбекистане и роль института адвокатуры в расследовании. Освещаются вопросы участия адвокатов в начальной стадии расследования, обеспечения права на защиту, сбора и оценки доказательств, взаимодействия с органами следствия.

Ключевые слова: права человека, адвокатура, расследование, защита, конституционные основы, законодательство, правоприменительная практика, проблемы, решения.

Abstract: This article analyzes the constitutional foundations of human rights protection in Uzbekistan and the role of the Institute of advocacy in the investigation. The article highlights issues such as the involvement of lawyers in the initial stage of investigation, ensuring the right to defense, evidence collection and evaluation, and cooperation with investigative bodies.

Keywords: human rights, advocacy, investigation, defense, constitutional framework, legislation, law enforcement practice, challenges, solutions.

Hozirgi kunda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib, bu masala jahon hamjamiyati va xalqaro

tashkilotlarning diqqat markazida turibdi. Demokratik jamiyatda shaxsning qadriyatini oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlaridan biri bu advokatura instituti faoliyatidir. Tergov amaliyotida inson huquqlarini ta'minlash esa, qonun ustuvorligini mustahkamlash, adolatli sudlovni amalga oshirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim shartidir. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning davlatga ishonchini oshiradi va mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltiradi.

Inson huquqlari himoyasi sohasida xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ko'plab hujjatlar mavjud. Bular qatorida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil) kabi muhim hujjatlarni alohida ta'kidlash lozim. Ushbu hujjatlar insonning asosiy huquq va erkinliklarini, jumladan, yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik, so'z erkinligi, vijdon erkinligi, mehnat qilish, ta'lim olish va sog'liqni saqlash kabi huquqlarini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi mazkur hujjatlarni ratifikatsiya qilgan va ularga muvofiq milliy qonunchilikni, tergov va sud amaliyotini takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish choralarini ko'rmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, Jinoyat-protsessual kodeksida¹ esa himoyalalanuvchining huquqlari, xususan, advokat bilan uchrashish, shuningdek himoya vositalaridan foydalanish huquqi mustahkamlangandir.

Zamonaviy tergov amaliyotida ham advokatura instituti inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Advokatlar tergov jarayonida shaxsning huquqlarini himoya qiladi, unga yuridik yordam ko'rsatadi, qonuniylikni ta'minlashga yordam beradi. Davratimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonda advokatura chinakam mustaqil institutga aylanishi kerak. Advokatlarning huquq va vakolatlarini yanada kengaytirish, ularning faoliyatiga hech qanday to'sqinliklar bo'lmasligi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beramiz"² – deb bildirgan fikrlari ham bejizga emas. Darhaqiqat, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XXIV bobi Advokatura bo'lib, 141-142-moddalarda advokatura faoliyatining asosiy qoidalari mustahkamlab qo'yilgan. Bu O'zbekiston tarixida ilk bora Konstitutsiyada advokaturaga alohida bob bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Olimlar bu o'zgarishni

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/docs/-111460>

² Mirziyoyev, Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 2022 yil 8 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5504>

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, advokatura institutining rolini kuchaytirish, tergov amaliyoti va sud-huquq tizimini demokratlashtirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholamoqdalar.

Tergovning dastlabki bosqichlari inson huquqlari buzilishi ehtimoli yuqori bo'lgan eng muhim bosqichlardan biridir. Shu sababli, ushbu bosqichda advokatlarning ishtiroki shaxs huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Advokat tergov organlari xodimlarining noqonuniy harakatlarining oldini olish, himoyalalanuvchining manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Tintuv o'tkazishda advokatning ishtiroki ham qonun bilan kafolatlangan. Advokat tintuv o'tkazish jarayonida hozir bo'lishi, tergov harakatlarining qonuniyligiga rioya etilishini kuzatishi, himoyalalanuvchining huquqlari buzilishining oldini olishi mumkin. Advokat tintuv o'tkazish bayonnomasiga o'z e'tirozlarini keltirish huquqiga ham ega.

Garchi qonunchilikda tergovning dastlabki bosqichlarida advokatlarning ishtiroki kafolatlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu huquqning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hollarda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari advokatlarni tergov jarayoniga o'z vaqtida jalb qilmaydi, ularga ish materiallari bilan tanishishga ruxsat bermaydi, advokat bilan uchrashish huquqini buzadi yoxud ularning faoliyatiga noqonuniy aralashadi. BOshqa tomondan esa navbatchi advokatlar bilan har safar uchrashaverganidan yaqin bo'lib ketgan tergov organi xodimlari faoliyati ham bugungi kundagi muammolardan hisoblanadi.

Masalan, 2021 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'lumotlariga ko'ra, advokatlarning 30% dan ortig'i tergov jarayonida o'z mijozlari bilan uchrashishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Bundan tashqari, advokatlarning 20% ga yaqini tergov organlari xodimlari tomonidan ish materiallari bilan tanishishga ruxsat berilmaganligi yoki to'liq tanishish imkoniyati yaratilmaganligi haqida shikoyat qilgan³. Bunday holatlar advokatlarning tergov jarayonida samarali ishtirok etishiga va o'z mijozlarining huquqlarini to'liq himoya qilishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa, o'z navbatida, inson huquqlari buzilishiga va adolatsiz sud qarorlari chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tergovning dastlabki bosqichlarida advokatlarning ishtirokini ta'minlash inson huquqlarini himoya qilishning samarali vositasidir. Masalan, AQShda gumon qilinuvchi hibsga olingan

³ <https://sud.uz/open-info/supreme-court-open-info>. Qaralgan vaqt: 04.12.2024

paytdan boshlab advokat bilan ta'minlanadi va advokat tergovning barcha bosqichlarida ishtirok etish huquqiga ega⁴.

Germaniyada advokatura federal tuzilishga ega bo'lib, har bir federal yerda o'zining Advokatlar palatasi mavjud. Palatalar advokatlarning malakasini oshirish, advokatlik odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, advokatlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi⁵.

AQShning DePol universiteti professori Robert Vischer o'zining "Legal Ethics in the Practice of Law" asarida advokatura mustaqilligi inson huquqlarini himoya qilishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mustaqil advokaturasiz adolatli sudlovni tasavvur qilish qiyin⁶.

Buyuk Britaniyaning sobiq bosh sudyasi Lord Bingham o'zining "The Rule of Law" asarida advokatura mustaqilligi qonun ustuvorligining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mustaqil advokatura fuqarolarga davlatning o'zboshimchaliklaridan himoya qilish imkonini beradi⁷.

Jinoyat protsessida advokatning ishtiroki ayblanuvchi va jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Advokat ayblanuvchini himoya qilishda uning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, tergov va sudda uning pozitsiyasini ifodalash, ayblov xulosasiga e'tirozlar bildirish, yengilroq jazo tayinlanishiga erishish kabi vazifalarni bajaradi. Jabrlanuvchiga yuridik yordam ko'rsatishda esa advokat uning huquqlarini tushuntirish, zararni qoplash masalasini hal etish, jinoyat protsessida ishtirok etishda ko'maklashish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Huquqshunos olim, professor X.T.Odilqoriev o'zining "Jinoyat protsessida advokat" nomli monografiyasida advokat faoliyatining maqsadini "qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish"⁸ deb ta'riflaydi. Shuningdek, yuridik fanlar doktori, professor F.M. Rasulov o'zining "Advokat etikasi" nomli asarida advokatning kasbiy faoliyati "vijdonanlik, halollik, adolatlilik va insonparvarlik" prinsiplariga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi⁹.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi dalillarni to'plash va baholashda advokatlarning faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Masalan, AQShda advokatlar tergov jarayonida mustaqil ravishda dalillar to'plashi, guvohlar bilan suhbatlashishi, ekspertiza tayinlashi

⁴ Kamisar, Y. *Police Interrogation and Confessions: Essays in Law and Policy*. University of Michigan Press, M-1980y, 3-5b.

⁵ *Rechtsanwaltsgesetz (RAnwG) in der Fassung der Bekanntmachung vom 26. Februar 1990 (BGBl. I S. 252)*, zuletzt geändert durch Artikel 15 des Gesetzes vom 12. Juli 2021 (BGBl. I S. 2854)

⁶ Vischer R. "Legal Ethics in the Practice of Law". Oxford University Press, Nyu-York-2008. 45b.

⁷ Bingham, T. H. *The Rule of Law*. London, Allen Lane, New York-2010, 175-196b.

⁸ Odilqoriev, X.T. "Jinoyat protsessida advokat". — Adolat nashriyoti, Toshkent - 2015. 87b.

⁹ Rasulov, F.M. "Advokat etikasi", Yuridik nashriyot, Toshkent-2012. — 54b.

mumkin. Bu esa, ayblanuvchi huquqlarining himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi¹⁰.

Buyuk Britaniyada advokatlar tergov organlaridan dalillarni olish, guvohlarni so'roq qilish, ekspert xulosalarini olish kabi huquqlarga ega. Bu huquqlar "Politsiya va jinoyat dalillari to'g'risida"gi qonunda (PACE) mustahkamlangan¹¹.

Dalillarni to'plash va baholashda advokatlar rolini o'rgangan xorijiy olimlar ham bu masalaga katta e'tibor qaratadilar. Jumladan, professor William Twining o'zining "Theories of Evidence: Bentham and Wigmore" asarida dalillarni to'plash va baholashda advokatlarning roli haqida so'z yuritadi. Uning fikricha, advokatlarning tergov jarayonida faol ishtiroki dalillarning xolis va to'liq to'planishiga, shuningdek, sudda adolatli qaror qabul qilinishiga yordam beradi¹².

Professor Ronald J. Allen o'zining "The Nature of Juridical Proof" asarida dalillarni baholashda advokatlarning roli haqida batafsil to'xtaladi. Uning fikricha, advokatlarning ishtirokisiz dalillarni xolis baholash va adolatli qaror qabul qilish mumkin emas¹³.

Tergov organlari bilan o'zaro munosabatlarda advokatlarning huquq va majburiyatlari qonun bilan tartibga solingan. Zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlarini ta'minlashda advokatlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, advokatlar tergovning barcha bosqichlarida, jumladan, dastlabki tergovda, hibsga olish, tintuv o'tkazish, so'roq qilish kabi protsessual harakatlarda ishtirok etishi inson huquqlarining buzilishini oldini olishga va adolatli sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Professor Stephen Thaman ta'kidlaganidek, "adversarial" tizimda advokatlarning roli ancha faol bo'lib, bu tizim inson huquqlarini himoya qilishda samaraliroq hisoblanadi¹⁴. Professor John H. Langbein¹⁵ esa Germaniyadagi sud tizimining afzalliklari haqida so'z yuritadi va advokatlarning sud jarayonida faol ishtiroki bu afzalliklardan biri ekanligi haqida so'z yuritadi. Qiyosiy huquqshunoslik sohasidagi taniqli olim Mirjan Damaska ham advokatlarning sud jarayonida ishtirok etishi adolatli sudlovni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi¹⁶.

¹⁰ Rothstein, P. F. *The Law of Evidence*. West Academic Publishing. W-2019y, 200-250b.

¹¹ *Police and Criminal Evidence Act 1984*. Her Majesty's Stationery Office, London-1984, 67-81b.

¹² Twining, W. *Theories of Evidence: Bentham and Wigmore*. Stanford University Press, 115-130b.

¹³ Allen, R. J. *The Nature of Juridical Proof*. *Cardozo Law Review*, 13(2), 373-399b.

¹⁴ Thaman, S. *The Adversarial System and the Inquisitorial System: Similarities and Differences*. *Villanova Law Review*, 49(3), 681-707b.

¹⁵ Langbein, J. H. *The German Advantage in Civil Procedure*. *University of Chicago Law Review*, 52(4), 823-866b.

¹⁶ Damaska, M. R. *The Faces of Justice and State Authority: A Comparative Approach to the Legal Process*. Yale University Press.

O‘zbekistonda advokatura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat – “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 1996-yilda qabul qilinganligini inobatga olsak, ayrim normalari bugungi kunda eskirgan. Bu esa, zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlarini ta‘minlashda advokatlarning rolini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Qonunchilikni takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, advokatlarning tergov jarayonidagi ishtirokini kengaytirish, jumladan, hibsga olish, tintuv o‘tkazish, so‘roq qilish kabi protsessual harakatlarda advokatlarning majburiy ishtirokini ta‘minlash.

Ikkinchidan, advokatlarning tergov organlaridan ma‘lumotlar olish, dalillar bilan tanishish, guvohlar bilan suhbatlashish huquqlarini kengaytirish.

Uchinchidan, advokatlarning malakasini oshirish va ixtisoslashtirish tizimini takomillashtirish. Zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, advokatlar ixtisoslashuvini rag‘batlantirish, xususan, jinoyat protsessi, fuqarolik protsessi, xo‘jalik protsessi kabi sohalarda ixtisoslashgan advokatlar tayyorlash. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi advokatura institutining faoliyatini yanada samarali tashkil etish, advokatlarning kasbiy mahoratini oshirish va inson huquqlarini himoya qilishda ularning rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilishda advokatura institutining muhim o‘rin tutadi. Advokatlarning tergov amaliyotida ishtiroki shaxs huquqlarining buzilishining oldini olish, qonuniylikni ta‘minlash va adolatli qaror qabul qilinishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada rivojlantirish va uning inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini oshirish uchun “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunni takomillashtirish, advokatlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish tizimini rivojlantirish, advokatura institutining mustaqilligini kuchaytirish, advokatlarning moddiy-texnik ta‘minoti va ijtimoiy himoyasini yaxshilash, huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga, advokatura institutining rolini oshirishga va jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Investigation proceedings in Germany". Fachanwalt für Strafrecht, Marquort.de, 2021.
2. Allen, R. J. The Nature of Juridical Proof. *Cardozo Law Review*, 13(2), 373-399b.
3. Bingham, T. H. *The Rule of Law*. London, Allen Lane, New York-2010, 175-196b.
4. Guinchard, S., & Montagnier, G. *Droit des professions juridiques*. Dalloz. . D-2020y. 110-150b.
5. <https://sud.uz/open-info/supreme-court-open-info>. Qaralgan vaqt: 04.12.2024
6. Kamisar, Y. *Police Interrogation and Confessions: Essays in Law and Policy*. University of Michigan Press, M-1980y, 3-5b
7. Langbein, J. H. The German Advantage in Civil Procedure. *University of Chicago Law Review*, 52(4), 823-866b.
8. Mirziyoyev, Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. 2022 yil 8 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5504>
9. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-3517337>
10. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/-97664>
11. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 349-I-son. <https://lex.uz/ru/docs/-54503>
12. Odilqoriev, X.T. "Jinoyat protsessida advokat". —Adolat nashriyoti, Toshkent - 2015. 87b.
13. *Police and Criminal Evidence Act 1984*. Her Majesty's Stationery Office, London-1984, 67-81b.
14. Rothstein, P. F. *The Law of Evidence*. West Academic Publishing. W-2019y, 200-250b.
15. Thaman, S. The Adversarial System and the Inquisitorial System: Similarities and Differences. *Villanova Law Review*, 49(3), 681-707b.
16. Twining, W. *Theories of Evidence: Bentham and Wigmore*. Stanford University Press, 115-130b.
17. Vischer R. "Legal Ethics in the Practice of Law". Oxford University Press, Nyu-York-2008. 45b.

**PUSHTI HUSUNBUZAR KASALLIGIDA HELICOBACTER PYLORI
INFEKSIYASINING ROLI****Toshqulov Javohir Husniddin o'g'li**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi 2-
kurs talabasie-mail; toshqulovjavohir05@gmail.com**Ilmiy rahbar; Boyqobilov Soatmurod Shuxrat o'g'li -**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

e-mail; soatmurad_boyqobilov@tues.uz

Rosacea - yuz terisining yog 'bezlari va soch follikularining surunkali, takrorlanuvchi kasalligi bo'lib, teri kapillyarlarining issiqlikka sezgirliги oshishi bilan birga keladigan terining allergik nevrozi. Kasallik barcha irqlarda uchraydi, lekin ko'pincha I va II turdagi teri fotosensitivligi bo'lgan irqlarlar (Irlandiya, Uels) odamlarida, kamroq tez-tez afrikaliklar va osiyoliklarda uchraydi. Uning aholi orasida tarqalishi 2 dan 10% gacha. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda tez-tez, asosan 40 yoshdan 50 yoshgacha kasallanadi.

Pushti husunbuzar (rosacea) etiologiyasi va patogenezi to'liq tushunilmagan. Rosacea trigeminal asabni innervatsiya qilish sohasidagi angionevroz bo'lib, turli omillar: konstitutsiyaviy angiopatiya, neyrovegetativ kasalliklar, emotsional stress, gormonal muvozanat, ovqat hazm qilish traktining disfunktsiyasi, fokal infektsiya. Ma'lumki, bir qator oziqlantiruvchi omillar (spirtli ichimliklar, issiq ichimliklar va ziravorlar) oshqozon shilliq qavatini rag'batlantiradi va refleks ta'siri tufayli yuz tomirlarining kengayishiga olib keladi. Qahva va kuchli choy issiq chaqnash va rosacea sabab bo'ladi, deb ishoniladi. Bu iste'mol qilingan ichimlikning haroratiga bog'liq. Endogen omillar orasida oshqozon-ichak trakti kasalliklari alohida o'rin tutadi: rosacea bilan og'rigan bemorlarning aksariyati gipo- yoki anatsid gastritni boshdan kechirishadi. Shubhasiz, oshqozon-ichak patologiyalarida rosacea rivojlanishi vazodilatatsiya vositachisi - prostaglandin E2 ning haddan tashqari ishlab chiqarilishi bilan izohlanadi, bu issiq qo'zg'alish va tomirlarning kengayishiga yordam beradi. Oshqozon-ichak trakti (GIT) kasalliklari qon tomirlarining sog'lig'iga bilvosita ta'sir qilishi mumkin. Oshqozon-ichak traktining shilliq qavatidan tirnash xususiyati vagus nervining shoxlari orqali uning yadrosiga o'tadi, so'ngra qo'zg'alish trigeminal asabning yadrosiga tarqaladi va ikkinchisining shoxlari orqali yuzning markaziy zonasiga kirib,

tomirlarning kengayishini va tugunchali toshmalar toshishini keltirib chiqargan. Biroq, tibbiyot fanlari va texnologiyasining rivojlanishi bilan ko'plab tadqiqotchilar rosacea paydo bo'lishini gastrit bilan emas, balki bu bemorlarda *Helicobacter pylori* (**H. pylori**) mavjudligi bilan bog'lashadi, bu esa vazoaktiv peptidlarning (prostaglandin EII) paydo bo'lishiga olib keladi. Fibrogastro duodenoskopiya yordamida rosacea bilan og'riqan 20 bemordan 15 tasida oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning patologiyasi (gastrit, duodenit) aniqlangan. Bemorlar IFA (immunoferment analizi) tadqiqoti davomida 20 bemorning 12 tasida (60%) *Helicobacter pylori* aniqlangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki *Helicobacter pylori* oshqozon shilliq qavatiga tasir qilib pushti husunbuzarlarning yuzaga kelishida asosiy omillardan biri ekanligini tavsiya qilamiz. *Helicobacter pylori*ga qarshi ham qo'shimcha davo muolajalari olib borilsa davolash samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vorobev P.A. Diagnostika i lechenie patologii gemostaza. - M.: Nyudiamed, 2011. - 410 s.
2. VOZ. Otchet «Globalnyy doklad po gepatitu». Jeneva. 27.07. 2017.
3. Gote C.B., Konstantinov B.A. , Sirulnikova O.M. Transplantatsiya pecheni: Rukovodstvo dlya vrachev. - M.: OOO «Meditinskoe informatsionnoe agentstvo», 2008. - 248 s.
4. Dolgov V.V., Svirin P.V. Laboratornaya diagnostika narusheniy gemostaza. - M.-Tver: Triada, 2005. - 227 s.
5. Mayer K.P. Gepatit i posledstviya gepatita. M.: GEOTAR Meditsina. - 2004. - 720 s.
6. Mextiev S.N. Grinevich V.B. , CHepur C.B., Gancho V.YU. Portalnaya gipertenziya u bolnyx xronicheskim gepatitom i sirrozom pecheni. - SPb.: Beresta, 2004. - 320 s.
7. Muxin N.A. Prakticheskaya gepatologiya. Posobie po materialam «shkoly gepatologa». - M., 2004. - S. 89 - 95.
8. Panteleev M.A., Vasilev S.A., Sianuridze E.I., Vorobev A.I., Ataulloxanov F.I. Prakticheskaya koagulologiya. - M.: Prakticheskaya meditsina, 2011. - S. 43-72.

9. Petрищев N.N. Дисфункция эндотелия. Причины, механизмы, фармакологическая коррекция. - SPb.: SPbGMU, 2003. - 184 s.

10. Родымова S.D. Болезни печени. Руководство для врачей. - М.: Медицина, 2005. - 768 s.

HARAKAT VA MUSIQANING UYG'UNLIGI ORQALI TA'LIM JARAYONIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Alayeva Zarnigor Maxmudovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Musiqa va tasviriy san'at kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ta'lim jarayonida ijodkorlikni shakllantirishning samarali usullaridan biri sifatida harakat va musiqaning uyg'unligidan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda musiqiy-harakatli faoliyatning o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Harakat va musiqaning integratsiyasi orqali ta'lim ishtirokchilarining estetik didini shakllantirish, ularning emotsional-intellektual salohiyatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada muallif ijodkorlikni rivojlantirishda musiqiy kompozitsiyalar, ritmik mashqlar va jismoniy harakatlarning o'zaro ta'siridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining nafaqat samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ta'lim jarayoni, harakat, musiqa, uyg'unlik, musiqiy-harakatli faoliyat, estetik did, emotsional-intellektual rivojlanish, ritmik mashqlar, ijodiy qobiliyatlar.

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ta'lim tizimi nafaqat bilim va ko'nikmalarni berish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalarni yaratishga va o'zini erkin ifoda qilishga o'rgatishni ham maqsad qilib qo'yadi. Bunda san'atning turli tarmoqlari, jumladan, musiqa va harakat kabi faoliyatlar alohida o'rin tutadi. Chunki musiqa va harakat o'quvchilarni nafaqat hissiy jihatdan boyitadi, balki ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Musiqa o'z mohiyatiga ko'ra insonning ichki olami, hissiyotlari va obrazli tafakkuriga ta'sir qiladi. Uning ohanglari va ritmik tuzilishi har qanday faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish, ularni yanada mazmunli va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, harakatlarning musiqaning mazmuni bilan uyg'unlashganda, ta'lim jarayonida estetik did, o'ziga bo'lgan ishonch va ijodkorlik kabi qobiliyatlar shakllanadi.

Hozirgi pedagogik tadqiqotlar musiqaning o'quvchilarni rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa va harakatning integratsiyasi bolalarda emotsional-intellektual rivojlanish, ijodiy

qobiliyatlarni shakllantirish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Ayniqsa, musiqa o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faolroq jalb qilishda samarali usuldir. Musiqa va harakatni birlashtirish orqali ta'lim mazmunini boyitish nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki ularning ijodkorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqola musiqaning ta'lim jarayonidagi ijodiy imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Unda musiqiy faoliyatning o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirishga bo'lgan ta'siri, musiqaning ta'lim jarayonida qo'llanilishi va uning amaliy usullari haqida so'z yuritiladi. Maqsad – musiqaning o'quv jarayonidagi imkoniyatlarini yanada samarali foydalanish orqali ijodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Harakat va musiqaning uyg'unligi — bu musiqaning ritmi, ohangi va mazmuni bilan mos keluvchi harakatlarni birlashtirish orqali ijodiy va hissiy jarayonlarni rivojlantirishga asoslangan usuldir. Bu yondashuvda harakat (masalan, jismoniy mashqlar, raqs, gestlar) musiqaning ichki tuzilishi bilan uyg'unlashib, har ikki elementning bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.

Harakat va musiqaning uyg'unligi qanday amalga oshiriladi?

1. **Ritmga mos harakatlar** – Musiqa ritmiga mos ravishda tananing turli qismlarini harakatlantirish (masalan, qo'l qimirlatish, sakrash, yurish).

2. **Musiqiy obrazlarni harakat orqali ifodalash** – Musiqaning mazmuniga mos obrazlarni harakatlar orqali tasvirlash (masalan, qushning uchishini, suvning oqimini ko'rsatish).

3. **Plastik harakatlar** – Musiqaning ohangini tana harakatlari bilan uyg'unlashtirish (masalan, raqslarda).

Harakat va musiqaning uyg'unligi nimaga xizmat qiladi?

- **Ijodiy rivojlanish:** O'quvchilar va ishtirokchilar musiqiy va harakatli obrazlarni yaratish orqali ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- **Hissiy rivojlanish:** Musiqa va harakatning birligi emotsiyalarni chuqurroq ifodalash imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning hissiy-intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

- **Estetik didni shakllantirish:** Musiqa va harakat uyg'unligi orqali go'zallikni tushunish va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

- **Jismoniy faollik:** Harakat musiqiy uyg'unlikda bo'lganda, u tananing moslashuvchanligi, muvofiqligi va umumiy jismoniy salomatlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta'limda harakat va musiqaning uyg'unligi

Ta'lim jarayonida bu usul o'quvchilarning bilim olish faoliyatiga hissiy va ijodiy unsurlarni qo'shadi. Bu:

- Darslarni qiziqarli va samarali qiladi.
- O'quvchilarning ko'p sezgilarini faollashtirib, o'quv jarayoniga chuqurroq jalb etadi.
- O'zini ifodalash va erkin fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Shunday qilib, **harakat va musiqaning uyg'unligi** nafaqat didaktik vosita, balki ijodkorlik, hissiy rivojlanish va estetik ta'lim uchun samarali yondashuv hisoblanadi.

Harakat va musiqaning uyg'unligi ta'lim jarayonida nafaqat didaktik maqsadlarni amalga oshirishga, balki o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida turli yoshdagi o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan bo'lib, ularda estetik hissiyotlarni, musiqiy eshituvni va harakatlarning plastikligini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqiy-harakatli mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini va hissiy qabul qilish darajasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Musiq va harakatning uyg'unligi o'quvchilarda ritmik qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ularda ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Musiq orqali harakatlarni boshqarish, yangi obrazlar yaratish, harakatlar orqali musiqiy tuyg'ularni ifodalash o'quvchilarda ijodiy tafakkur va emotsional sezgirlikni rivojlantiradi.

Misol uchun, bolalar bog'chasi va boshlang'ich sinflarda musiqaga mos holda bajariladigan oddiy harakatlar (masalan, qo'llarni silkitish, aylanish, sakrash) bolalarda ritmik sezgirlikni oshiradi. Ushbu jarayonni murakkablashtirib, harakatlarga obrazli elementlar qo'shilganda (masalan, qushcha uchayotgani yoki baliq suzayotgani), bolalarda musiqiy-mavzuli tafakkur rivojlanadi.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda musiqiy-harakatli mashqlar

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda musiqiy-harakatli mashqlar alohida o'rin tutadi. Bu mashqlar quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Ritmik mashqlar – o'quvchilar musiq bilan mos ravishda harakatlarni takrorlaydi. Bu nafaqat jismoniy faollikni, balki musiqiy sezgirlikni ham oshiradi.
2. Imitatsion mashqlar – bolalar musiqaga mos ravishda turli obrazlarni tasvirlaydi (masalan, hayvonlarning harakatlarini ko'rsatish).
3. Kompozitsion mashqlar – o'quvchilarga musiqaga mos ravishda o'z harakatlarini yaratish vazifasi beriladi, bu esa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Musiq va harakat uyg'unligining psixologik va pedagogik foydasi

Musiq va harakatning uyg'unligi o'quvchilarning quyidagi jihatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega:

- Hissiy-intellektual rivojlanish – musiqaga mos ravishda bajariladigan harakatlar bolalarning emotsional barqarorligini ta'minlab, ijodiy salohiyatlarini rag'batlantiradi.

- O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish – jamoaviy harakatlar orqali o'quvchilar o'ziga nisbatan ishonch hosil qiladi va bu ularning ijtimoiylashuv darajasini oshiradi.

- Estetik didni rivojlantirish – musiqaning go'zalligi va harakatlarning nafisligi birlashib, o'quvchilarning estetik qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi amaliy yondashuvlarni qo'llash tavsiya etiladi:

1. Harakat va musiqaning uyg'unligini ta'minlovchi maxsus darslar tashkil etish.

2. Har bir darsda musiqiy ritmga mos harakatlar orqali mavzuni mustahkamlash.

3. O'quvchilarga mustaqil ravishda musiqaga mos harakatlar yaratish vazifalarini berish.

4. Musiqa va harakatni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish (masalan, adabiyot yoki tarix darslarida musiqiy tasviriy harakatlarni qo'llash).

Shunday qilib, harakat va musiqaning uyg'unligi ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishi bilan birga, o'quvchilarda ijodkorlik va hissiy rivojlanishni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat estetik, balki pedagogik maqsadlarga erishishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida musiqadan ijodkorlikni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish o'quvchilarning ko'p qirrali rivojlanishiga xizmat qiladi. Musiqa nafaqat estetik va emotsional hissiyotlarni rivojlantiradi, balki ularni har tomonlama ijodiy shaxs sifatida shakllantiradi. Bu yondashuv ta'limni qiziqarli, samarali va ijodiy qiladi. Musiqa va harakatning uyg'unligi ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning hissiy-intellektual rivojlanishi, estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Musiqa orqali hissiy holatlarni boshqarish va harakatlar yordamida musiqiy obrazlarni ifodalash o'quvchilarning ijodiy salohiyatini kengaytiradi, bu esa ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Maqolada keltirilgan ilmiy dalillar va amaliy tavsiyalar musiqiy-harakatli faoliyatning ta'lim jarayonidagi o'rnini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Musiqaning ritmik va emotsional xususiyatlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa: Musiqa va harakatni birlashtirish nafaqat o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham ko'maklashadi. Kelgusida ta'lim jarayonida musiqiy-harakatli faoliyatni qo'llashni kengaytirish, musiqaga asoslangan innovatsion metodlarni joriy etish orqali ta'limning sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki ularning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, musiqa va harakat uyg'unligidan ta'lim jarayonida foydalanish pedagogik amaliyotda yangi imkoniyatlar yaratib, ijodiy shaxslarni shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Педагогика как наука и искусство воспитания." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 78-81.
2. Alayeva, Zarnigor. "Pedagogik mahorat: Pedagogik mahorat." *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali* 1.1 (2021).
3. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Роль национальных инструментов в музыкальном образовании начальных классов." *Проблемы науки* 66 (2021).
4. Alayeva, Zarnigor Maxmudovna, and Sadoqat Ruslanovna Shamsiyeva. "Qo'shiq tushunchasi va uning inson hayotida tutgan o'rni hamda xonandalik ijrochiligi tarixi." *Scientific progress* 1.5 (2021): 336-342.
5. Аллаева, Зарнигор Махмудовна. "Эстетическое воспитание дошкольников с помощью песен и танцев." *Наука, техника и образование* 2-1 (77) (2021): 69-72.
6. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Интерпретация методов музыкального воспитания и образования дошкольника." *Science and Education* 3.4 (2022): 1253-1258.
7. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Регулирование и интерактивное планирование музыкального воспитания и образования для начальных классов." *Science and Education* 3.4 (2022): 1259-1264.
8. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Дискретность ритмических движений. Ритмика в начальной школе хореография." *Science and Education* 3.4 (2022): 1233-1238.
9. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Методические рекомендации по развитию ритмических навыков младших школьников." *Science and Education* 3.4 (2022): 1246-1252.

10. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "Шаг с подскоком в детском хореографии. Методические трудности педагога хореографа при выполнении шага с подскоком." *Science and Education* 3.4 (2022): 1239-1245.

11. Алаева, З. М. "Использование Арт-Педагогических Технологий В Развитии Музыкальных Способностей Студентов." *Central Asian Journal of Arts and Design* 3.1 (2022): 6-9.

12. Alayeva, Zarnigor Maxmudovna. "TALABALARNI MILLIY BADIY AN'ANALAR VOSITASIDA G'OYAVIY TARBIYALASH TIZIMI." *ZAMONAVIY FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH MUAMMOLARINING INNOVATSION YECHIMLARI* 5 (2023): 12-15.

13. Alayeva, Zarnigor Maxmudovna, and Malohat Hasan qizi Junaydova. "The System of Ideological Education of Students through National Traditions." *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science* 2 (2023): 54-58.

14. Maxmudovna, Alayeva Zarnigor. "The System of Ideological Education of Students through National Traditions." *European Journal of Innovation in Nonformal Education* 3.2 (2023): 47-51.

15. Maxmudovna, Alayeva Zarnigor. "BADIY TO'GARAKLARDA TALABALARNI G'OYAVIY-ESTETIK TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Journal of Innovation, Creativity and Art* (2023): 108-112.

16. Maxmudovna, Alayeva Zarnigor. "THE ROLE OF MUSIC EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PERSONAL DEVELOPMENT." *Journal of Innovation, Creativity and Art* (2023): 85-88.

17. Makhmudovna, Alayeva Zarnigor. "THE SINGING TECHNIQUE OF A VARIETY SINGER." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.4 (2024): 178-182.

18. Алаева, Зарнигор Махмудовна. "ЭСТРАДА И НАЦИОНАЛЬНАЯ ЭСТРАДА В УЗБЕКИСТАНЕ ФОРМИРОВАНИЕ." *International conference on multidisciplinary science*. Vol. 2. No. 3. 2024.APA

GERBITSIDLAR QO'LLAGANDA BUG'DOY HOSILDORLIGINI OSHIRISH.

Boltayev Ozod Toshtemitovich.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

baxmallikozod@gmail.com

Аннотация

Gerbitsidlarni qo'llash bug'doy ekinlarining hosildorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular begona o'tlar bilan samarali kurashish orqali ekinning oziqlanishi, o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli gerbitsidlarni qo'llash bug'doy hosil tuzilmasining asosiy elementlariga, xususan boshqoq uzunligi, boshqoqdagi donlar soni va ularning og'irligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Lalmi va sug'oriladigan bug'doy ekinlarida Puma super, Granstar, Fenizan, Kovboy, Elant, Luvaram kabi gerbitsidlarning samaradorligi kuzatilgan bo'lib, hosildorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan. Tadqiqotlar shuningdek, gerbitsidlarni qo'llash natijasida hosildorlikning 0,2 dan 7,7 s/ga gacha ortishi va don sifatining yaxshilanishi mumkinligini ko'rsatdi. Xususan, ayrim gerbitsidlar o'simliklarning fitosanitar holatini yaxshilab, ekinning poya va boshqoq rivojlanishini rag'batlantirgan. Ushbu tadqiqot natijalari gerbitsidlarning maqsadli va ilmiy asoslangan qo'llanilishi bug'doy hosildorligi va sifatini oshirishda muhim strategiya ekanligini tasdiqlaydi.

Аннотация

Применение гербицидов играет важную роль в повышении урожайности пшеницы, поскольку они эффективно борются с сорняками, создавая благоприятные условия для питания, роста и развития растений. Результаты исследований показывают, что использование различных гербицидов оказывает положительное влияние на основные элементы структуры урожая пшеницы, в частности на длину колоса, количество и массу зерен в колосе. Эффективность таких гербицидов, как Puma Super, Granstar, Fenizan, Cowboy, Elant, Luvaram, была подтверждена как на богарной, так и на орошаемой пшенице, что способствовало значительному увеличению урожайности. Исследования также показали, что применение гербицидов может повысить урожайность от 0,2 до 7,7 ц/га и улучшить качество зерна. В частности, некоторые гербициды улучшают фитосанитарное состояние растений, способствуя развитию стебля и колоса.

Полученные результаты подтверждают, что целенаправленное и научно обоснованное применение гербицидов является важной стратегией для повышения урожайности и качества пшеницы.

Annotation

The use of herbicides plays a crucial role in increasing wheat yield, as they effectively control weeds, creating favorable conditions for plant nutrition, growth, and development. Research results indicate that the application of various herbicides positively affects key yield structure elements of wheat, particularly spike length, the number of grains per spike, and their weight. The effectiveness of herbicides such as Puma Super, Granstar, Fenizan, Cowboy, Elant, and Luvaram has been observed in both rainfed and irrigated wheat, contributing to a significant yield increase. Studies have also shown that herbicide application can enhance yield from 0.2 to 7.7 c/ha and improve grain quality. In particular, certain herbicides improve the phytosanitary condition of plants, promoting stem and spike development. These findings confirm that the targeted and scientifically grounded use of herbicides is a key strategy for increasing wheat yield and quality.

Kalit so'zlar.

Gerbitsidlar, fitotoksiklik, oziqlanish sharoitlari, boshoq uzunligi, 1000 don og'irligi, begona o'tlarga qarshi kurash, Puma Super, Granstar, Fenizan, Kovboy, Elant, Luvaram, Sekator Turbo, Prima, 2,4-D gerbitsidi, lalmi bug'doy, sug'oriladigan bug'doy, kuzgi bug'doy, hosil tuzilmasi, shoxalash unumdorligi, don tarkibi, fitosanitar holat, gerbitsidlarning samaradorligi.

Ключевые слова:

Гербициды, фитотоксичность, условия питания, длина колоса, масса 1000 зёрен, борьба с сорняками, Puma Super, Granstar, Fenizan, Kovboy, Elant, Luvaram, Sekator Turbo, Prima, гербицид 2,4-D, богарная пшеница, орошаемая пшеница, озимая пшеница, структура урожая, продуктивное кустистость, состав зерна, фитосанитарное состояние, эффективность гербицидов.

Keywords

Herbicides, phytotoxicity, nutrient conditions, spike length, 1000-grain weight, weed control, Puma Super, Granstar, Fenizan, Kovboy, Elant, Luvaram, Sekator Turbo, Prima, 2,4-D herbicide, rainfed wheat, irrigated wheat, winter wheat, yield structure, productive tillering, grain composition, phytosanitary condition, herbicide efficiency.

Gerbitsidlarni qo'llashda ularning hosil tuzilmasiga ta'sirini hisobga olish juda muhim, chunki yuqori hosil olish dehqonchilikning bosh vazifasi hisoblanadi. Yovvoyi (begona) o'tlar bilan kurashishning bilim bilan tanlangan tizimida ekinning shikastlanish xavfini sezilarli ravishda tushirish (pasaytirish) va bu bilan ekologik xavfsiz mahsulot olib bug'doy hosildorligini oshirish mumkin. Bug'doy uchun boshqodagi donlar soni kabi parametrlarni hosil tuzilmasining asosiy elementlariga kiritishadi.

Ko'pincha gerbitsidlarni qo'llash bilan ekin hosildorligini oshirishni ekinzorlar ifloslanishini kamaytirish va oqibatda, ekin oziqlanishi, o'sishi va rivojlanishi uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish bilan izohlanadi. Tadqiqotlarda aniqlanganki, hosil tuzilmasi ko'rsatkichlarini yaxshilash (boshqoq uzunligi, boshqodagi don soni va og'irligi oshgan) kuzgi bug'doy ekinlariga Fenizan (4;5), Kovboy (4;5), Elant (4), Luvaram (4) gerbitsidlarini qo'llash variantlarida ularning begona o'tlarni yo'qotishdagi samaradorligi bilan o'zaro aloqador [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 22-27-b.]. Puma super (8;9) gerbitsidini lalmi bug'doy ekinlarida qo'llash ifloslanish darajasini pasaytirishga va shu bilan birga hosildorlikni minimum (kamida) 0,544 t/ga ishonchli ravishda ko'tarishga imkon berdi.

Ozarbayjonda Granstar, Lintur, Puma super, 2,4-D-aminmaya sol, veed-killer, kalamitu, kotdamin va xotamin gerbitsidlarini kuzgi bug'doyga qo'llash nafaqat sinalayotgan gerbitsidlarning barcha muddatlarda yuqori samaradorligini, balki hosildorlik ko'rsatkichlarining va don sifatini (donlar soni, dondagi kraxmal va kleykovina miqdori oshadi) oshishini ham aniqladi. Kuzgi bug'doy ekinlariga Sekator Turbo, Topik, Rimanol, StarTerr, Premer-300 va senturion yangi gerbitsidlari bilan ikki martali ishlov berish yovvoyi o'tlar bilan samarali kurashni va tekis zonada hosilni 129% ga, RSO Alaniya tog'oldi zonasida 181% ga ko'payishini ta'minladi.

Oltoy o'lkasi dala tajribalari sharoitida Puma super va Granstar gerbitsidlari bak aralashmasini Oltoy 100 va Oltoy cho'li navli yumshoq lalmi bug'doyga qo'llashda hosilning 2,3-2,7 s/ga (10,4-17,7%) atrofida ishonchli ko'paygani kuzatildi. Omsk 28 navli yumshoq lalmi bug'doyga butun guruh gerbitsidlar aralashmasi bilan ishlov berganda don hosildorligining oshishi nazoratga nisbatan 1,11-1,03 t/ga, yoki 57,0-48,1% ni tashkil qildi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**; 9-13-b.]. Oltoy o'lkasida Laren SP (8,0 g/ga) gerbitsidini Oltoy o'rimi navli kuzgi bug'doy ekinlariga qo'llash preparatni qo'llash muddatlariga qaramasdan hosildorlikning 104%ga o'sishini ta'minladi.

Boshqirdiston respublikasi Ufa tumanida o'tkazilgan tadqiqotlar 2,4-D, xlorsulfuron va dikamba asosidagi gerbitsidlarini lalmi bug'doy ekinlariga

qo'llashning yovvoyi o'tlarga qarshi yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Bunda ular bug'doy ekiniga fitotoksik ta'sir ko'rsatmadi.

Belgorod viloyatida Serto plyus gerbitsidi Odessa 267 navli lalmi bug'doy 100 doni og'irligining 12% ga o'sishiga yordam berdi.

Buryatiyada Prima (4;10), Sekator (6;7;8), Magnum (3), Topik (19;20), Puma Super 100 (8;9) gerbitsidlarini va ularning bak aralashmalarini lalmi bug'doyga qo'llash boshqoq uzunligini 1 smga, boshqoqdagi donlar sonini 1,4-3,4 donaga, boshqoqdagi donlar og'irligini 0,07-0,2 g ga va 1000 don og'irligini 0,7-1,2 g ga oshirdi. Lalimi bug'doyda Referi (1) va Granstar (2) gerbitsidlari bak aralashmalarini qo'llash bir vaqtning o'zida don sifatini oshirib hosildorlikni 0,23-0,25 t/ga ko'tarilishiga yordam berdi, Kovboy-super (1;5) gerbitsidi esa hosilni 0,20 t/ga o'sishini ko'rsatdi.

Volgograd viloyatidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yer bag'irlab o'sadigan achchiqmiyaga gerbitsidlar bak aralashmasi bilan ishlov berish kuzgi bug'doyda hosildorlikni ishonchli qo'shimchalar bilan ta'minlab, hosil tuzilmasi elementlariga ijobiy tasir ko'rsatdi (boshqoqdagi donlar soni, boshqoqdagi donlar og'irligi, 1000 don og'irligi va shoxalash unumdorligi oshgan). Olingan natijalar ob-havo sharoitlariga ham bog'liq.

Ingliz tilining xalqaro miqyosda keng tarqalishining asosiy sababi tarixiy omillarga, xususan, Buyuk Britaniya imperiyasi va AQShning iqtisodiy kuchiga borib taqaladi. 20-asrda texnologiyaning rivojlanishi va internetning keng qo'llanilishi natijasida ingliz tili global aloqa tili sifatida mustahkam o'ringa ega bo'ldi.

Ingliz tili va ta'lim:

Ingliz tilida ta'lim olish ko'plab mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim vositaga aylandi. Xalqaro universitetlar, ilmiy jurnal va konferensiyalar asosan ingliz tilida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda ham ingliz tilidagi oliy ta'lim dasturlari soni ko'paymoqda.

Texnologiya va diplomatiyada ingliz tilining ahamiyati:

Texnologik kompaniyalar va internet platformalaridagi asosiy til sifatida ingliz tilidan foydalanish bugungi kunda global kommunikatsiyaning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro diplomatik aloqalarda ham ingliz tili muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda, bu esa tilning siyosiy va ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Madaniy ta'sirlar va ingliz tilining tarqalishi:

Ingliz tilidagi filmlar, musiqa, adabiyot va ommaviy madaniyat mahsulotlari dunyo bo'ylab madaniyatlararo mulohazani kuchaytirdi. Ushbu omillar natijasida ingliz tili boshqa madaniyatlar orasida ham keng qabul qilinmoqda.

Soha	Ingliz tilining o'рни	Misollar
Ta'lim	Xalqaro oliy ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarda asosiy til	Xalqaro universitetlar, ingliz tilidagi ilmiy jurnallar va konferensiyalar
Texnologiya	Internet platformalari va texnologik kommunikatsiyada asosiy til	Google, Facebook, Microsoft, va Apple kompaniyalarida ingliz tili asosiy aloqa vositasi
Diplomatiya	Xalqaro siyosiy va diplomatik muzokaralarda keng qo'llaniladi	Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, NATO
Savdo va iqtisodiyot	Xalqaro biznes va savdo sohalarida asosiy til	Xalqaro korporatsiyalar va transmilliy kompaniyalar o'rtasida savdo shartnomalari, bitimlar
Madaniyatlararo muloqot	Ingliz tilidagi madaniyat mahsulotlari global auditoriyaga yetkaziladi	Hollywood filmlari, ingliz tilidagi musiqa, adabiyot va teleko'rsatuvlar

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tili zamonaviy kommunikatsiyada xalqaro aloqa vositasi sifatida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Uning ta'lim, texnologiya va diplomatiya sohalaridagi ahamiyati global muloqotning samaradorligini oshiradi. Ingliz tilining madaniy va ijtimoiy ta'siri uning xalqaro til sifatida rivojlanishini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, bu tilni o'rganish va undan foydalanish global raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bunon, D. (2011). Ingliz tili ta'limda: Xalqaro miqyosdagi o'rganish va qo'llanish. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
3. Graddol, D. (2006). English Next: Why Global English May Mean the End of 'English as a Foreign Language'. British Council.
4. Karimov, A. (2018). O'zbekistonda ingliz tilining ta'lim va diplomatiyadagi o'рни. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

ТРАВМАТИК МИЯ ЖАРОҲАТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОҚИБАТЛАРИ: ТАҲЛИЛ ВА ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛИШИ

Амирова Сабрина Бахромовна,
Кенжаев Ёдгор Маматқулович
Термиз иқтисодиёт ва сервис
университети, Тиббиёт факультети

Долзарблиги: Травматик миё жароҳатлари (ТМЖ) дунё миқёсида жисмоний жароҳатлар орасида асосий муаммолардан бири бўлиб, инсон ҳаёти ва саломатлигига катта хавф туғдиради. Ушбу жароҳатлар йўл-транспорт ҳодисалари, ишлаб чиқариш жараёнлари ва маиший фаолият давомида юзага келади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ТМЖ инсоний ресурсларга салбий таъсир кўрсатувчи жиддий омиллардан бири ҳисобланади.

Тадқиқот мақсади: ТМЖ ни оғирлик даражаси бўйича таснифлаш, уларнинг оқибатларини аниқлаш ва замонавий даволаш тактикаларини ишлаб чиқиш.

Материал ва методлар

- **Тадқиқот даври:** 2019-2024 йиллар.
- **Тадқиқот жойи:** Термиз шаҳридаги тиббий муассасалар.
- **Иштирокчилар:** ТМЖ билан касалланган 367 нафар бемор.
- **Ташхис усуллари:** УЗИ, КТ ва МРТ каби замонавий ташхислаш усуллари.
- **Клиник баҳолаш:** Glazko кома шкаласи (GCS) асосида беморлар ҳолати баҳоланди.
- **Даволаш усуллари:** Антиоксидантлар, гипотензив воситалар ва реабилитацион терапия қўлланилди.

Натижалар:

- **Клиник кўриниш:** Беморларда бош миё қон айланиши бузилишлари, бош оғриқлари, бош миёдаги шишлар қайд этилди.
- **Ташхис натижалари:** Қон кетиш ва бош миё тўқималаридаги шикастланишлар кўп учраган.
- **Даволаш муваффақияти:** Комплекс терапия қўлланганда неврологик асоратлар камайган.
- **Статистик таҳлил:** Оғир даражали ТМЖ даги беморларда ҳаёт учун хавфли асоратлар (геморрагия, шок ҳолатлари) 45% ҳолатда қайд этилган.

Мухокама: Ушбу тадқиқот ТМЖ ни даволашда комплекс ёндашувнинг самарадорлигини кўрсатди. Эрта ташхис ва мақсадли даволаш чоралари неврологик асоратларни олдини олиш имконини берди. Шунга қарамай, реабилитацион даволаш жараёнларига етарли эътибор қаратиш зарур.

Хулоса: ТМЖ инсон саломатлиги учун катта хавф туғдирувчи жароҳат турларидан биридир. Тадқиқот давомида замонавий диагностика ва даволаш усулларининг афзалликлари аниқланди.

Тавсиялар:

Даволаш жараёнига касалликни эрта аниқлаш методикаларини жорий қилиш. Тез ёрдам хизмати учун махсус протоколлар ишлаб чиқиш. Давлат дастурлари доирасида ТМЖ ни олдини олиш чораларини кучайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. World Health Organization (WHO). Traumatic Brain Injuries: Global Epidemiology.
2. Glazko Coma Scale Clinical Guidelines.
3. Modern Diagnostic Approaches in Neurotrauma.

**TIBBIYOT TEXNIKUMLARIDA ORGANIK KIMYONI O'QITISHDA
KOGNITIV YONDASHUV****Matchonova Malika Maxmudovna**

Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Sergeli jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi paytda pedagog va psixologlarning diqqat markazini o'quv predmetlarining nazariy asoslari va ularning tuzilishi bilan bir qatorda o'quvchilar faoliyati, unga dahldor psixologik va pedagogik qonuniyatlar hamda o'quv faoliyatini samarali boshqarish omillari ham band etib turibdi. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o'qishga qiziqtirish va ularda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish-dolzarb muammodir.

Kalit so'zlar: kognitivizm, kognitiv ta'lim nazariyasi, ta'lim asoslari, o'qitish usullari

Kognitiv yondashuv — bu bilimlarni qanday o'zlashtirish, saqlash va ulardan qanday foydalanish jarayonini o'rganadigan psixologik va pedagogik yondashuvdir. Kognitiv yondashuvni umumiy tarzda shunday ta'riflash mumkin: inson ongida axborot qanday qabul qilinadi, qayta ishlanadi, o'zlashtiriladi va qanday saqlanadi. Ushbu yondashuv, o'rganish jarayonida ong, xotira, diqqat, idrok va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarga asoslanadi.

Kognitiv yondashuv, 1950-yillarda paydo bo'lib, o'rganish va xotira mexanizmlarini tushunishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida rivojlandi. Kognitiv yondashuv, psixologiyaning o'rganish va bilish jarayonlariga doir bo'lgan barcha sohalarini o'z ichiga oladi, shu jumladan:

- **Ma'lumotni qayta ishlash:** Inson miyasida axborot qanday qabul qilinadi va qanday saqlanadi.
- **Xotira va saqlash:** O'rganilgan bilimlar qanday saqlanadi va kerak bo'lganda qanday qayta ishlatiladi.
- **Diqqat va idrok:** Nimalarga e'tibor qaratish va qanday qilib ularni aniq tushunish.
- **Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish:** Bilimlarni amaliyotda qanday qo'llash.

Tibbiyot texnikumlarida organik kimyoni o'qitishda kognitiv yondashuv mavzusi, o'quvchilarga organik kimyoning asosiy tushunchalari va amaliyotini samarali o'rgatish jarayonida kognitiv pedagogika yondashuvlaridan foydalanishni ko'rib chiqadi. Kognitiv yondashuv, bilimlarni olish, o'zlashtirish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarini chuqur o'rganishga asoslangan bo'lib, bu yondashuvning tibbiyotda organik kimyo darslarini o'qitishda ahamiyati katta.

Organik kimyo, tibbiyot sohasida muhim bo'lib, u dorivor moddalarning tuzilishi, ularning faoliyat mexanizmlari va metabolizmi bilan bevosita bog'liqdir. Tibbiyot texnikumlarida organik kimyo o'qitish, talabalarga:

- **Dori vositalarining tuzilishini,**
- **Ularning biokimyoviy reaksiyalarini,**
- **Metabolizm jarayonlarini** va ularning organizmdagi o'zaro ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Kognitiv yondashuv, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning miyaning faol ishlashini rag'batlantiradi. Organik kimyo darslarini o'qitishda kognitiv yondashuvni qo'llashning ba'zi asosiy prinsiplari:

- **Faol o'quvchi:** Kognitiv yondashuv, faqatgina darslarni eslab qolishdan ko'ra, o'quvchilarning materialni tushunishi va uni o'z bilimlari bilan bog'lashini ta'minlaydi. Bu o'quvchilarga organik kimyo molekulalarini va ularning tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
- **Yangi bilimlarni ilgari olingan bilimlar bilan bog'lash:** Organik kimyo o'quv dasturida kognitiv yondashuv, talabalarni yangi bilimlarni o'zlashtirishda ilgari o'rganilgan material bilan bog'lashga yordam beradi. Misol uchun, alkollarni o'rganishdan oldin, uglevodorodlar va ularning turli strukturalari haqida tushuncha berish kerak.
- **Mentall modellarning rivojlanishi:** Organik kimyo, abstrakt tushunchalarni o'z ichiga oladi. Kognitiv yondashuv yordamida, talabalar molekulyar tuzilmalar, funktsional guruhlar va kimyoviy reaksiyalar haqida aniq mental modellarga ega bo'lishadi.
- **Tajriba va eksperimentlarga asoslangan holda o'qitish:** Kognitiv yondashuv amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va eksperimentlar yordamida materiallarni o'zlashtirishga katta ahamiyat beradi. Tibbiyotda, masalan, dori

vositalarining kimyoviy xususiyatlarini laboratoriya sharoitida o'rganish talabalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tibbiyot texnikumlarida organik kimyoni o'qitishda kognitiv yondashuvning amaliy qo'llanilishi

Tibbiyot texnikumlarida organik kimyo darslarini kognitiv yondashuv asosida o'qitishda quyidagi metodlar samarali bo'lishi mumkin:

- **Kognitiv interaktiv metodlar:** Tibbiyot talabalarini o'qitishda, interaktiv usullarni (masalan, elektron taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, video materiallar) qo'llash ularning bilimlarni faol o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu metodlar, o'quvchilarga kimyoviy reaksiyalarni, molekularar tuzilmalarni va ularning biologik tizimlarga ta'sirini vizual tarzda tushunishga imkon yaratadi.
- **Problemaga asoslangan o'qitish:** Talabalarga amaliy muammolarni hal qilishni taklif etish, masalan, dorivor moddalar va ularning biologik ta'siri haqida savollar qo'yish orqali, organik kimyo materialini o'rganish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Kognitiv yondashuv, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va analitik yondashuvlarini kuchaytiradi.
- **Ko'p qirrali baholash usullari:** O'quvchilarning bilimlarini faqat yodlash orqali emas, balki materialni tushunish va qo'llashga asoslangan baholash tizimidan foydalanish zarur. Misol uchun, organik kimyo bo'yicha talabalarning dastlabki bilimlarini testlar, laboratoriya ishlari va seminarlar yordamida baholash mumkin.

Tibbiyot sohasida **Problemaga asoslangan o'qitish (PBL)** metodikasi, talabalar va mutaxassislarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun samarali usul hisoblanadi. Ushbu metod orqali talabalar tibbiy bilimlarni faqat nazariy ravishda emas, balki amaliyotga qaratilgan tarzda o'rganishadi. "Uglevodorodlar" mavzusi tibbiyotda ham muhim o'rin tutadi, chunki bu birikmalar ko'plab dorilar, anesteziya moddalar, va boshqa tibbiy mahsulotlar tarkibida mavjud.

Quyida, tibbiyot sohasida "**Uglevodorodlar**" mavzusi asosida tuzilgan **Problemaga asoslangan o'qitish (PBL)** misoli keltirilgan.

1. Boshlang'ich muammo:

O'quvchilarga quyidagi tibbiy muammo taqdim etiladi:

Muammo: "Yaqinda bir bemor og'ir nafas olish muammolari bilan shifoxonaga yotqizildi. Tibbiy tekshiruvlar natijasida uning qonida yuqori miqdorda karbonat angidrid (CO_2) borligi aniqlandi. Shuningdek, bemor uzoq vaqt davomida uglevodorod gazlari bilan ishlagan va ularning yonish mahsulotlariga (masalan, karbon monoksid va karbonat angidrid) doimiy ravishda duchor bo'lgan. Sizning vazifangiz – bemorning holatini aniqlash, uglevodorodlar va ularning salbiy ta'sirini tushunish, va bemorning sog'lig'ini tiklash uchun zarur davolash usullarini ishlab chiqish."

2. O'quvchilarga muammo bilan tanishtirish:

O'quvchilarga uglevodorodlar va ularning tibbiyotdagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Bu yerda o'quvchilar quyidagi savollarni o'rganadilar:

- Uglevodorodlar nima va ular qanday tibbiy mahsulotlarda qo'llaniladi?
- Uglevodorodlar bilan uzoq vaqt ishlashning salbiy ta'sirlari qanday bo'lishi mumkin?
- Uglevodorodlar va ularning yonish mahsulotlari (masalan, karbon monoksid va karbonat angidrid) organizmga qanday ta'sir qiladi?
- Uglevodorodlardan kelib chiqqan kasalliklar va intoksikatsiyaning davolash usullari qanday?

3. O'quvchilarni guruhlarga bo'lib o'rganishga yo'naltirish:

O'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruh muayyan bir masalani o'rganishga tayyorlanadi:

- **Guruh 1:** Uglevodorodlar va ularning tibbiyotda qo'llanilishi (masalan, anesteziq gazlar, og'riq qoldiruvchi moddalar).
- **Guruh 2:** Uglevodorodlar yonish mahsulotlari va ular organizmga ta'siri (karbon monoksid, karbonat angidrid va boshqa toksik gazlar).
- **Guruh 3:** Uglevodorodlar bilan ishlashda yuzaga keladigan salbiy ta'sirlar va intoksikatsiya belgilari (nafas olish qiyinlashuvi, bosh aylanishi, bosh og'rig'i va h.k.).
- **Guruh 4:** Uglevodorodlar bilan intoksikatsiyani davolash usullari (oksigenoterapiya, antidotlar, ventilyatsiya va h.k.).

4. Tadqiqot va o'rganish:

O'quvchilar o'z guruhlarida uglevodorodlar va ularning tibbiy salbiy ta'siri haqida o'rganadilar. Ular ilmiy manbalar, tibbiy maqolalar, va video materiallar orqali quyidagi savollarga javob izlaydilar:

- Uglevodorodlar qanday kimyoviy moddalar va ular qaysi tibbiy jarayonlarda ishlatiladi?
- Uglevodorodlar yonish mahsulotlarining organizmga qanday ta'siri bor? (masalan, karbon monoksidning kislorod bilan bog'lanishiga qanday ta'siri bor?)
- Uglevodorodlarga uzoq muddatli ta'sirning tibbiy oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?
- Uglevodorodlar bilan intoksikatsiya holatida qanday davolash usullari samarali hisoblanadi?

5. Yechimni ishlab chiqish:

Har bir guruh o'zining o'rganishlari asosida uglevodorodlar bilan bog'liq tibbiy muammolarni hal qilish uchun yechimlar ishlab chiqadi. Masalan:

- **Guruh 1:** Uglevodorodlardan foydalanganida qanday xavfsizlik choralarini ko'rish kerakligi haqida tavsiyalar berish.
- **Guruh 2:** Uglevodorodlardan kelib chiqqan toksik gazlarni aniqlash va davolash usullarini ishlab chiqish (masalan, karbon monoksid intoksikatsiyasi uchun oksigenoterapiya).
- **Guruh 3:** Uglevodorodlarga uzoq muddatli ta'sir qilgan bemorlarda kuzatilgan kasalliklarni aniqlash va davolash.
- **Guruh 4:** Uglevodorodlar bilan bog'liq intoksikatsiya holatlarida samarali davolash rejalarini tuzish.

6. Yechimlarni taqdim etish va muhokama qilish:

Har bir guruh o'z yechimlarini sinfga taqdim etadi. Taqdimot davomida guruhlar o'rtasida muhokama olib boriladi, ularning takliflari va yechimlari tahlil qilinadi. Boshqa guruhlar o'z fikrlarini bildiradi va yechimlarni yaxshilash bo'yicha maslahatlar beradi.

7. Yakuniy muhokama va baholash:

O'qituvchi va talabalar yakuniy muhokama qilishadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini, yechimlarni ishlab chiqishdagi ijodkorliklarini va muammolarni hal qilishdagi samaradorliklarini baholaydi. Shuningdek, o'qituvchi talabalar tomonidan ishlab chiqilgan tibbiy yechimlarning amaliyotga qo'llanilishi mumkinligini muhokama qiladi.

Natija:

Bu jarayon orqali o'quvchilar uglevodorodlar, ularning salbiy ta'siri va tibbiyotdagi ahamiyati haqida chuqur bilimlarga ega bo'ladilar. Ular uglevodorodlar bilan bog'liq tibbiy muammolarni hal qilish uchun zaruriy tibbiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. **Problemaga asoslangan o'qitish (PBL)** metodi orqali talabalar real tibbiy vaziyatlarni tushunish, ilmiy tahlil qilish va davolash usullarini ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Tibbiyotda organik kimyo tushunchalarini o'zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar

Tibbiyot talabalari organik kimyoni o'rganishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin:

- **Abstrakt tushunchalar:** Organik kimyo ko'pincha abstrakt va murakkab tushunchalar (molekulyar struktura, izomerizm, reaksiya mexanizmlari)ni o'z ichiga oladi. Kognitiv yondashuv yordamida o'quvchilar bu tushunchalarni konkret misollar va tasvirlar yordamida yaxshiroq tushunishadi.
- **Kombinatsion bilim:** Organik kimyo talabalardan biokimyo, fiziologiya va farmakologiya kabi boshqa tibbiy sohalar bilan bog'liq bilimlarni talab qiladi. Kognitiv yondashuv, bu turli bilimlarni birlashtirishda va bir-biri bilan bog'lashda yordam beradi.

Xulosa

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida organik kimyoni o'qitishda kognitiv yondashuv, talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali talabalarning tibbiyotga oid organik kimyo tushunchalarini chuqurroq o'zlashtirishlari, analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Kognitiv yondashuvni qo'llash, organik

kimyo ta'limining samaradorligini oshiradi va talabalarning keyingi tibbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning o'quv faoliyati muammolari psixologiya sohasida A.S.Graniskaya, V. L. Kruteskiy, N.F.Talizina [26, 59, 121] ishlarida, pedagogika va didaktika sohasida Yu. K. Babanskiy, V.P.Bespalko, V.V.Guzeev, M.L.Podlasiy, G.K.Selevko, G.I.Shukina [9, 10, 15, 27, 28, 99, 108, 147] ishlarida yoritilgan.

Alexander, J. 2003. Meaningful reception learning and schema theory. *Cognition and Learning*.<http://www.indiana.edu/~p540alex/unit4.html>.

Anderson, J. A., L. M. Reder, and H. A. Simon. 1997. Situative versus cognitive perspectives: Form versus substance. *Educational Researcher* 26 (1): 18–21.

Bransford, J. D., A. L. Brown, and R. R. Cocking. 2000. *How people learn: Brain, mind, experience, and school*. Washington, DC: National Academy Press.

Bransford, J. D., R. D. Sherwood, T. S. Hasselbring, C. K. Kinzer, and

S. M. Williams. 1990. Anchored instruction: Why we need it and how technology can help. In *Cognition, education, and multimedia: Exploring ideas in high technology*, ed. D. Nix and R. Sprio, 115–41. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.

Booth, M. 1994. Cognition in history: A British perspective. *Educational Psychologist* 29(2): 61–69.

Bruner, J. 1990. *Acts of meaning*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF OFFLINE AND ONLINE LEARNING

Jamilova Sevinchbonu Salohiddin qizi

1st year Master's student of the Foreign languages and literature faculty,

University of Economics and Pedagogy

E-mail: jamilovasevinchbonu2@gmail.com

Scientific advisor: PhD., assoc.prof., Bakhtiyorova Maftuna Bakhtiyorovna

University of Economics and Pedagogy

Abstract. The rapid advancement of technology has brought significant changes to the educational landscape, particularly in the shift from traditional offline (face-to-face) learning to online learning. Both methods offer unique advantages and present certain challenges, influencing the learning experiences of students.


Key words: Face-to-face communication, education, offline learning, Online Learning, Technology-enhanced learning, Time management challenges, Flexible schedule, Wide range of courses.

Education is a very important process for every individual, enabling personal growth, the development of critical thinking, and effective participation in society. Education introduces a person to the world and provides the opportunity to learn new ideas. Through education, a person gains knowledge and skills, which leads to professional success. The process of studying and learning offers opportunities for personal development and self-awareness. However, distance learning and traditional learning are two main forms of education. Each has its own unique advantages and disadvantages.

Distance learning refers to obtaining education through the internet. In this format, students and teachers interact without being in the same location, using video lessons, online courses, forums, and other digital tools. Online classes provide flexibility, global access, and technological opportunities. Students can study at their own convenient time and place, making it very suitable for those who are working or have other commitments. Additionally, education can be accessed from anywhere in the world. Lessons, tests, and other materials are easily available online.

However, there are several disadvantages to online education. Firstly, the necessity for self-discipline may be lower. Students need to learn to manage their time effectively and work independently. Secondly, there is less interactivity. The lack of

face-to-face communication can lead some students to feel isolated. According to Statista, the online education market was valued at \$319 billion in 2021, and it is expected to reach \$1 trillion by 2026.



The statistical diagram above shows the growth in the number of courses offered on platforms like edX and Coursera during the years 2018–2020.

Title: Growth of Online Courses (edX and Coursera).

X-axis: Years (2018, 2019, 2020)

Y-axis: Number of Courses (in millions)

Data points:

2018: 3.5M

2019: 6.2M

2020: 10.5M

Offline learning is traditional face-to-face education in classrooms with a teacher. In this format, students learn through textbooks, laboratories, group discussions, and other activities. Through offline classes, we can engage in direct communication, be more interactive, and receive direct motivation from teachers. That is, firstly, there is direct communication between the student and the teacher, which makes learning effective. Secondly, through group work and seminars, students communicate directly with each other. Thirdly, face-to-face classes encourage students to learn more since they are supported and inspired by their instructors.

The main disadvantage of offline education is that it is dependent on specific locations and times. Students must go to a certain place, which can increase time and

expenses. On the other hand, there is also a lack of flexibility for students. The study schedule is rigid, making it difficult for students to always adapt their time. For example, in traditional classes held in every university or school, students attend classes in classrooms.

Below is the statistical diagram of students' preferences for education in 2020 (Nielsen study). 73% of students participating in traditional education preferred only offline education. Additionally, according to Statista, in 2019, 72% of the total education services market worldwide was made up of offline education.



Title: Students' Education Preferences in 2020 (Nielsen Study).

Labels:

Offline Education Only: 73%

Other Preferences: 27%

To summary, online learning has become more in demand with the development of technology, especially during the pandemic. However, offline education makes learning effective through its interactivity and direct communication. The convenience of each format for a student depends on their educational and personal needs.

References:

1. Dabbagh, N. (2007). *The role of technology in enhancing learning*. Journal of Educational Technology Development and Exchange. **Link:** <https://journals.sfu.ca/etde/index.php/etde/article/view/108>
2. Miller, R. (2012). *Education and the importance of traditional classroom settings*. Educational Leadership, 70(4), 60-64. **Link:** <https://www.ascd.org/el/articles/the-benefits-of-classroom-learning>
3. Anderson, C. (2015). *Offline learning and its role in education*. Journal of Education Policy, 13(2), 45-56. **Link:** <https://www.jstor.org/stable/26797344>

4. Harvard University. (2020). *Traditional education and its long-lasting impact on students*. Harvard Education Review. **Link:** <https://hepg.org/her-home/issues/harvard-educational-review-volume-90-number-4>
5. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended learning in higher education*. Jossey-Bass. **Link:** <https://www.wiley.com/en-us/Blended+Learning+in+Higher+Education-p-9780787996181>
6. Allen, I. E., & Seaman, J. (2017). *Digital learning: Trends in online education*. Babson Survey Research Group. **Link:** <https://onlinelearningsurvey.com/reports/gradeincrease.pdf>
7. Reimers, F. M., & Chung, C. K. (2020). *The impact of the digital revolution on education and learning*. Springer. **Link:** https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-41815-1_7
8. Allen, I. E., & Seaman, J. (2013). *Changing Course: Ten Years of Tracking Online Education in the United States*. Babson Survey Research Group. **Link:** <https://www.pearson.com/insights/changing-course-10-years-of-tracking-online-education-in-the-united-states>
9. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001-3007.
10. Бахтиёрва, М. (2024). Atoqli otlarning umumnazariy muammolari. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(6), 40-45.
11. Bakhtiyorovna, B. M. (2022). Discursive-pragmatic nature of anthroponyms. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 110-114.
12. Bakhtiyorova, M. (2019). THE EFFECT OF USING MNEMONICS. *Студенческий вестник*, (22-8), 63-65.
13. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001-3007.
14. Ismoilov, A., & Bakhtiyorova, M. (2024). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3(7), 26-29.
15. BAKHTIYOROVA, M. (2024). ONOMASTIK KONSEPT TUSHUNCHASI. *UzMU xabarlari*, 1(1.4), 288-292.
16. Камолова, Р. Ш., & Бахтиярова, М. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ КОННОТАЦИИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, ОПИСЫВАЮЩИХ ПОГОДУ. *ТА'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(1), 30-33.
17. Baxhtiyorova, M. (2023). ONOMASTIKONLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 464-469.

18. Baxtiyorovna, B. M. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ONOMASTIKONLARNING CHOG 'ISHTIRMA SEMANTIK TAHLILI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
19. Baxtiyorova, M. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA ASAR QAHRAMONLARI NOMLARINING MATN YARATISHDAGI ISHTIROKI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (10), 268-273.
20. Bakhtiyorovna, B. M. (2022). Discursive-pragmatic nature of anthroponyms. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 110-114.
21. Bakhtiyarova, M. B. (2021). VERBALIZATION OF THE CONCEPT" ONIM" IN LINGUOCOGNITOLOGY. *Ростовский научный вестник*, (3), 11-12.
22. Baxtiyorova, M. B. (2020). ANTROPONIMLARNING SHAKLLANISHIDA MORFEMALARNING SEMANTIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Студенческий вестник*, (36-3), 96-98.
23. Bakhtiyorova, M. (2019). THE EFFECT OF USING MNEMONICS. *Студенческий вестник*, (22-8), 63-65.
24. Bakhtiyorova, M., & Elmurodova, F. (2017). PAPERS IN ENGLISH. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК*, 10, 52.
25. Kizi, M. M. K., & Bakhtiyorovna, B. M. (2024). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN MODERN ENGLISH (BASED ON MEDIA MATERIALS) AND THEIR ROLE IN TEACHING VOCABULARY. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(1), 187-191.
26. Bakhtiyorovna, B. M. (2025). PRAGMATIC AND STYLISTIC ASPECTS OF NEOLOGISMS IN CONTEMPORARY MEDIA AND THEIR IMPLICATIONS FOR VOCABULARY TEACHING. *Journal of universal science research*, 3(1), 89-95.
27. Alisher o'g'li, I. A., & Bakhtiyorovna, B. M. (2024, May). THE PROBLEM OF COMPONENTIAL ANALYSIS OF MEANING IN PRESENT DAY LEXICOLOGY. In *Konferensiyalar/ Conferences* (Vol. 1, No. 10, pp. 748-752).
28. Kizi, K. V. S., & Bakhtiyorovna, B. M. (2024). ANALYZING TYPES OF ALLEGORY AND CLASSIFYING THEM. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(1-2), 96-99.

КОМПЛЕКСНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ОСТРЫХ ЛАРИНГИТОВ

Шаматов Ислон Якубович

Старший преподаватель кафедры Оториноларингологии №1 Самаркандского государственного медицинского университета Ганиев Достонбек,

Каршиев Бобур

Клинические ординаторы 1 года обучения Самаркандского государственного медицинского университета

Острый ларингит (ОЛ) относится к одним широко распространенных заболеваний неуклонный рост заболеваемости его прогрессирующее течение не только наносят вред организму больного, но и приносят колоссальным экономическим потерям.

Разработка новых эффективных методов лечения с созданием высокой концентрации лекарственных веществ в дыхательных путях, минимизации побочных реакции и сокращения до необходимого минимума медикаментозной нагрузки у данной категории больных является активными и предпочтительными приоритетными в ларингологии.

Цель исследования. Научно обосновать целесообразность применения небулайзерной терапии у больных с острым катаральным ларингитом.

Материалы и методы исследования. В период 2016-2018гг. в отделениях ЛОР, реанимации и педиатрии СОДММЦ (Самаркандский Областной Детский Медицинский Многопрофильный Центр) пролечено 47 больных в возрасте от 3 до 18 лет. Мальчиков было больше чем девочек 26 (55,3%) и 21 (44,7%) соответственно. Все пациенты были разделены на две группы – основную (24 детей) и контрольную группу (23 детей). Критериями отбора являлись наличие острого катарального и инфильтративного ларингита. Всем больным было проведено стандартный осмотр ЛОР – органов, наряду с этим проводилось общий анализ крови, общий анализ мочи, рентгенография или компьютерная томография органов грудной клетки.

Основная группа получала наряду с общепринятым лечением, небулайзерную терапию. Для выбора антибактериального препарата учитывались данные о клинических проявлений ларингита, спектр возбудителей, наличие хорошей тропностью в слизистой оболочки верхних дыхательных путей, хорошей переносимостью и минимальный количества побочных эффектов.

Всем выше перечисленным требованиям отвечает препарат Галавит. Механизм действия препарата связан с его способностью регулировать

функционально-метаболическую активность клеток врожденного и адаптивного 99 иммунитета (в т.ч. моноциты, макрофаги, нейтрофилы, натуральные киллеры). Препарат Галавит нормализует фагоцитарную активность моноцитов/макрофагов, бактерицидную активность нейтрофилов и цитотоксическую активность НК-клеток. При этом, восстанавливая пониженную активность клеток врожденного и адаптивного иммунитета, препарат повышает резистентность организма к инфекционным заболеваниям бактериальной, вирусной и грибковой этиологии, способствует более быстрой элиминации возбудителя из организма, сокращает частоту, выраженность и длительность инфекций.

Кроме того, препарат Галавит нормализует антителообразование, повышает функциональную активность (аффинитет) антител, опосредованно регулирует выработку эндогенных интерферонов (ИФН- α , ИФН- γ) клетками-продуцентами.

При воспалительных заболеваниях препарат обратимо на 6–8 ч ингибирует избыточный синтез гиперактивированными макрофагами ФНО- α , ИЛ-1, ИЛ-6 и других провоспалительных цитокинов, уровень которых определяет степень воспалительных реакций, их цикличность, а также выраженность интоксикации организма. Препарат Галавит снижает выработку гиперактивированными макрофагами активных форм кислорода, тем самым снижая уровень оксидантного стресса и защищая ткани и органы от разрушительного воздействия радикалов. Нормализация избыточно повышенной функциональной активности фагоцитарных клеток приводит к восстановлению их антигенпредставляющей и регулирующей функции, снижению уровня аутоагрессии.

Препарат хорошо переносится, не оказывает аллергизирующего, мутагенного, эмбриотоксического, тератогенного и канцерогенного действия.

Пациентам основной группы небулайзерная терапия проводилась нами при помощи компрессивного небулайзера (Юрия ФАРМ). Аппарат состоит из двух основных узлов генератора потока воздуха (компрессора) который является источником потока газа и распылителя жидкости (колбы для распыления лекарственных веществ) – соответственно небулайзера с воздухопроводными и различными насадками.

При выполнении процедур больным мы соблюдали общие требования и правила проведения небулайзерной терапии. Больным основной группы ингаляционная терапия галавитом проводилась во 2-ом режиме (дисперсность частиц аэрозоля 2-10 мкм), что необходимо для лечебного воздействия на

верхние дыхательные пути. В течение суток мы выполняли по две процедуры продолжительностью 10 минут каждая. Процедуры повторяли на протяжении 5-7 дней. Одновременно проводилась принятая в клинике и базисная терапия включающая в себя антигистаминные, муколитические препараты, при необходимости применялось внутримышечное введение глю 100 кокортикостероидов. Контрольная группа получала общепринятое лечение включающее парентеральное применение антибактериального препарата (группы пеницилина); антигистаминные (супрастин, кларитин); муколитические препараты (мукалтин, бромгексин); при необходимости применялось внутримышечное введение глюкокортикоидов.

В качестве критерия эффективности лечения нами использована динамика субъективных жалоб пациентов, ларингоскопической картины, дыхательной и голосовой функций.

Оценка эффективности лечения проводили на окончании пребывания больного на стационарном лечении. Бальная оценка проводилась нами, где 1 балл обозначало – отсутствие эффекта, 2 балла - удовлетворительный эффект. 3 балл – положительный эффект.

Анализ показал, что у 22 (91,6%) пациентов основной группы и у 16 (69,6%) контрольной результат лечения был оценен как положительный.

Удовлетворительный результат отмечен и у 2 (8,4%) пациентов основной группы и у 5 (21,7%) в контрольной группе.

Таким образом, сравнительный анализ показал более выраженную эффективность небулайзерной терапии в комплексе с базисной терапии, а также преимущество перед парентеральным использованием антибактериальных препаратов при лечении острых ларингитов.

Список литературы

1. Ариненко Р. Ю., Аникин В.Б., Головкин В.И. Система интерферона: первая линия защиты организма // Terra Medica. – 2007. - №4. - С. 11-14.
2. Василенко Ю.С. Ингаляционная небулайзерная терапия при заболеваниях верхних дыхательных путей и голосового аппарата, - М., 2000.- 18 с.
3. Заплатников А.Л. Острые респираторные инфекции у детей: современные возможности этиотропной терапии // Русский медицинский журнал. - 2004. – Том.10, №3. - С. 103-107.
4. Amirav I, Balanov Z, Gorenberg M, Groshar D, Luder AS. Nebuliser hood compared to mask in wheezy infants: aerosol therapy without tears! // Israel, Safed. ArchDis Child. -2003. -V.88. -N.8. -P.719-723.

5. Wright R.B., Pomerantz W.J., Luria J.W. *New approaches to respiratory infections in children. Bronchiolitis and croup. // Etnerg Med Clin North Am. 2002 Feb; 20(1): 93-114.*
6. Исламов Ш.Э., Шаматов И.Я., Шодиев А.Э., Шербекков Б.Э. Дефекты оказания медицинской помощи в практике оториноларингологии.// «Достижения науки и образования ISSN 2413-2071 N 4(2020/58) V.50-53
7. Шаматов И.Я., Хушвакова Н.Ж., Бурханов У.М. Эндоскопическая ультразвуковая дезинтеграция при гипертрофическом рините с одновременной коррекции устья слуховых труб. // Биология ва тиббиет муаммолари – N 3 (111) 2019 –P.143-144.
8. Шаматов И.Я. Применение фонофареза новокаина при лечение хронического риносинусита «Профилактик тиббиётда юқори инновацион технологияларни қўллаш» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2020г –С.313
9. Шаматов, И., Каримов, З., Шопулотова, З., & Махмудова, С. (2021). ВОЗМОЖНОСТИ КОМПЬЮТЕРНОЙ И МАГНИТНО-РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ В ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПОЛОСТИ НОСА И ВЕРХНЕЧЕЛЮСТНОЙ ПАЗУХИ. *Журнал вестник врача, 1(2)*, 113-115.
10. Бахриев, И. И., Ешмуратов, Б. А., Раимбердиев, С. А., Шаматов, И. Я., & Ёкубов, Б. Т. (2023). Патоморфологические особенности черепно-мозговой травмы. *Journal of Universal Science Research, 1(3)*, 136-144.
11. Ибрагимов, Ш. Р., Шаматов, И. Я., & Исламов, Ш. Э. (2020). Особенности повреждений челюстей. *Вопросы науки и образования, (30 (114))*, 36-44.
12. Шаматов, И. Я., Хушвакова, Н. Ж., & Бурханов, У. М. (2019). Эндоскопическая ультразвуковая дезинтеграция при гипертрофическом рините с одновременной коррекции устья слуховых труб. *БИОЛОГИЯ ВА ТИББИЁТ МУАММОЛАРИ PROBLEMS OF BIOLOGY AND MEDICINE ПРОБЛЕМЫ БИОЛОГИИ*, 144.
13. Исламов, Ш. Э., Шаматов, И. Я., Шодиев, А. Э., & Шербекков, Б. Э. (2020). Дефекты оказания медицинской помощи в практике оториноларингологии. *Достижения науки и образования, (4 (58))*, 50-53.
14. Шаматов, И. Я., Болтаев, А. И., Шадиев, А. Э., & Кодиров, О. Н. (2017). Эндоскопическая диагностика и лечение деформации носовой перегородки и гипертрофии нижних носовых раковин. In *International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 5, No. 5, pp. 61-63)*. ROST.

15. Шаматов, И. Я., Хушвакова, Н. Д., Шодиев, А. Э., & Курбанов, Э. Х. (2019). Комплексное лечение хронического риносинусита в стадии обострения. *Re-health journal*, (2), 5-10.
16. Yokubovich, S. I., Sharipovna, I. F., & Jurakulova, N. N. (2021). New Approaches in the Treatment of Odontogenic Sinusitis. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(2), 57-60.
17. Насретдинова, М., Шаматов, И., & Коржавов, Ш. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ БОЛНЫХ С ПОЛИПОЗНЫМ РИНОСИНУСИТОМ. *Журнал вестник врача*, 1(2), 71-74.
18. Шаматов, И. Я., Хушвакова, Н. Ж., & Исхакова, Ф. Ш. (2019). КОМПЛЕКСНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ОСТРЫХ ЛАРИНГИТОВ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 98.
19. Shamatov, I., Karabaev, N., Nasretdinova, M., & Nabiev, O. (2021). New in the vestibular rehabilitation of patients with dizziness. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 99-103.
20. Насретдинова, М., Шаматов, И., & Коржавов, Ш. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ БОЛНЫХ С ПОЛИПОЗНЫМ РИНОСИНУСИТОМ. *Журнал вестник врача*, 1(2), 71-74.
21. Шаматов, И. Я., Хушвакова, Н. Ж., & Исхакова, Ф. Ш. (2019). КОМПЛЕКСНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ОСТРЫХ ЛАРИНГИТОВ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 98.
22. Shamatov, I., Karabaev, N., Nasretdinova, M., & Nabiev, O. (2021). New in the vestibular rehabilitation of patients with dizziness. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 99-103.
23. Шаматов, И. Я., Давронова, Г. Б., & Курбонов, Э. Х. (2016). Эндоскопическая диагностика: новые возможности щадящих хирургических операций в полости носа и глотки. In *Инновационные механизмы решения проблем научного развития* (pp. 186-189).
24. Шаматов, И., Курбанов, Э., Болтаев, А., & Соатмуратов, Х. (2015). Современные подходы к хирургической коррекции патологии устья слуховых труб у детей. *Stomatologiya*, 1(3 (61)), 91-93.
25. Исламов, Ш. Э., Ураков, К. Н., & Нормухаматов, И. З. ЗАЩИТА ПРАВ ПАЦИЕНТА ПРИ ПРОВЕДЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ. *ТВЕРСКОЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ Учредители: Тверской государственный медицинский университет*, (4), 93-95.
26. Исламов, Ш. Э., Махматмурадова, Н. Н., & Нормухаматов, И. З. ЭТИЧЕСКИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЕЖДУ МЕДИЦИНСКИМ РАБОТНИКОМ И

ПАЦИЕНТОМ. *ТВЕРСКОЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ Учредители: Тверской государственный медицинский университет, (4), 90-92.*

27. Исламов, Ш. Э., & Шаматов, И. Я. (2005). Судебно-медицинские аспекты дефектов медицинской помощи в оториноларингологической практике. *Российская ринология, (2), 144-145.*

28. Шаматов, И., Коржавов, Ш., & Курбанова, Л. (2021). Эффективность некоторых методов лечения пациентов с полипозным риносинуситом. *Журнал биомедицины и практики, 1(3/2), 159-164.*

29. Шаматов, И. Я., Исламов, Ш. Э., & Шербекоев, Б. Э. (2021). УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВОЙ ТРАВМЫ. *Вопросы науки и образования, (13 (138)), 34-38.*

30. Шаматов, И. Я., & Исхакова, Ф. Ш. (2016). РОЛЬ АУДИОМЕТРИИ В ДИАГНОСТИКЕ СЕНСОНЕВРАЛЬНОЙ ТУГОУХОСТИ. *ББК 65.26 Н 72, 54.*

31. Бахронов, А. Р., Хушвакова, Н. Ж., Болтаев, А. И., & Шаматов, И. Я. (2014). Применение комбинированных антисептиков в лечении острого фарингита. *Вестник Казахского Национального медицинского университета, (2-3), 14-15.*

32. Шаматов, И. Я., Болтаев, А. И., & Расулова, М. Р. (2022). ИММУНОБИОХИМИЧЕСКИЕ СДВИГИ ПРИ СЕЗОННОЙ БИЦИЛЛИНОМЕДИКОМЕНТОЗНОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ ХРОНИЧЕСКИХ ТОНЗИЛЛИТОВ В САНАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ. In *Проблемы постковидной оториноларингологии* (pp. 284-286).

33. Хушвакова, Н., Шаматов, И., Хамракулова, Н., & Усманов, Ш. (2018). Роль озонотерапии в лечении экссудативных гайморитов. *Журнал проблемы биологии и медицины, (1 (99)), 124-126.*

34. Шодиев, С., Шаркиев, А., Аббосов, О., Фозилова, Д., & Шаматов, И. (2016). Усовершенствование лечения альвеолитов лунок зубов. *Stomatologiya, 1(2-3 (63-64)), 54-57.*

35. Sabirova, M. M., Akhmedzhanov, I. A., & Shamatov, I. (1991). Errors in the diagnosis of a foreign body in the pharynx of a three-month old child. *Vestnik Otorinolaringologii, (4), 60-60.*

36. Sabirova, M. M., Rustamova, B. A., & Shamatov, I. (1991). Unusual cases of esophageal foreign bodies. *Vestnik Otorinolaringologii, (2), 78-78.*

KUZGI BUG'DOY NAVLARINING PAST HARORAT STRESSIGA CHIDAMLILIGINI BAHOLASH

Sh.Sh.Raximov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
universiteti biologiya kafedrası o'qituvchisi

raximovshuxrat94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida ekilayotgan kuzgi bug'doy navlarining past harorat stressiga chidamliligiga antropogen omillar (ekish muddatlari) ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining taxlili bayon qilingan. Tadqiqot natijalari asosida sovuq stressiga nisbatan chidamli hamda hududga mos navlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Kuzgi bug'doy, chidamlilik, sovuq stressiga chidamlik, abiotik omil, antropogen omil, harorat, nav.

Аннотация. В данной статье представлены результаты анализа исследований влияния антропогенных факторов (сроки посева) на устойчивость сортов озимой пшеницы к стрессу низких температур в условиях Хорезмской области. Результаты исследования имеют важное значение для определения сортов, устойчивых к холодовому стрессу, а также соответствующих данному региону.

Ключевые слова: Озимая пшеница, устойчивость, устойчивость к холодовому стрессу, абиотический фактор, антропогенный фактор, температура, сорт.

Annotation: This article presents an analysis of research results on the impact of anthropogenic factors (sowing dates) on the cold stress tolerance of winter wheat varieties grown in the conditions of the Khorezm region. The findings of the study are of great significance in identifying cold stress-resistant and regionally adapted varieties.

Keywords: Winter wheat, tolerance, cold stress resistance, abiotic factor, anthropogenic factor, temperature, variety.

Kirish. Kuzgi bug'doy navlarining qishki sovuq stressiga chidamliligi navning biologik-genetik xususiyatlariga hamda abiotik omil haroratga va antropogen omil ekish muddatiga bog'liq. Kuzgi bug'doy sovuqqa chidamli o'simlik hisoblanadi. Kuzgi bug'doy 20 sm qalinlikdagi qor tagida -20-30 °C sovuqqa ham bardosh bera oladi.

Lekin respublikamiz sharoitida yetarlicha qalinlikda qor yog'maganligi sababli kuzgi bug'doy -10°C sovuqqa chidaydi. [1].

Namangan viloyati sharoitida yetishtirilayotgan yangi kuzgi bug'doyning Asr, Nodir, Andijon-2, Zimnitsa, Gurt, Antonina navlarini qishning sovuq kunlariga chidamligi, iqlim o'zgarishiga, kasalliklarga, yozning issiq kunlariga va garmselga chidamliligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega ekanligini aniqlaganlar.[2]

Toshkent viloyatining tuproq-iqlim sharoitida kuzgi bug'doy duragaylarining past harorat stressiga chidamliligini baholash borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kuzgi bug'doyning Bezostaya, Graf, Antonina, Saberbash, Step, Temiryazovka, Yog'du va Bardosh navlari past harorat ta'sirida shikastlanmagan chidamliligi yuqori navlar ekanligi aniqlangan[3].

Respublikamizda ekilayotgan kuzgi bug'doy navlar ichida sovuqqa chidamlilik bo'yicha Andijon-2 va Andijon-4 navlari o'rtachadan yuqori, Bobur, Andijon-1 va Chillaki navlari o'rtacha chidamli, Krasnodarskaya-99, Moskvich navlari sovuqqa o'ta yuqori chidamli bo'lib, ular qish faslida -20°C va undan past haroratda ham nobud bo'lmaydi [4].

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqot ishlari Urganch davlat universitetining tajriba xo'jaligida 2020-2023 yillar davomida olib borildi. Tadqiqotlar davomida sholining ertapishar navlaridan bo'shagan maydonlarga kuzgi bug'doyning Zimnitsa, Asr va Gurt navlarining urug'lari 1-oktabr, 10-oktabr, 20-oktabr muddatlarida ekildi.

Tajriba davomida harorat NASA POWER sun'iy yo'ldoshidan olingan ma'lumotlar asosida aniqlandi. Kuzgi bug'doyning sovuqqa chidamliligi "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (O'zPITI, 2007) bo'yicha aniqlandi [5].

Tadqiqotlarimiz davomida kuzgi bug'doy navlarining past harorat stressiga bardoshliligi o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tadqiqotlar davomida kuzgi bug'doyning qishlash davrida harorat- 10°C dan past bo'lgan kunlar soni aniqlandi hamda navlarning sovuq stressiga bardoshliligi aniqlandi.

2020-2021 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasining qishlash davrida harorat -10°C dan past bo'lgan kunlar 38 kuni tashkil etdi. Noyabr oyida minimal harorat $-12,42^{\circ}\text{C}$, dekabr oyida $-16,67^{\circ}\text{C}$, yanvar oyida $-17,85^{\circ}\text{C}$, fevral oyida $-15,24^{\circ}\text{C}$, mart oyida $-14,17^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qildi. 2020-2021 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasi davridagi eng past harorat $-17,85^{\circ}\text{C}$ teng bo'ldi.

Kuzgi bug'doyning "Zimnitsa" navida 2020-2021 yillar davomida olib borilgan fenologik kuzatuvlar davomida 1-oktabrda ekilganda qishlovdan oldin ko'chat soni 1

m² maydonda 408 donani tashkil etgan bo'lsa, qishlovdan keyin bu ko'rsatkich 336 donaga teng bo'lib, 17,6 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

10-oktabrda ekilgan variantda qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² maydonda 390 donani tashkil etgan bo'lsa, qishlovdan keyin bu ko'rsatkich 307 donaga teng bo'lib, 21,2 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

20-oktabrda ekilgan variantlar orasida qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² maydonda 361 donani tashkil etgan bo'lsa, qishlovdan keyin bu ko'rsatkich 269 donaga teng bo'lib, 25,5 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

Asr navida 2020-2021 yillar davomida olib borgan kuzatuvlar asosida 1-oktabrda ekilgan variantlar orasida qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² maydonda 411 donani tashkil etib, qishlovdan keyin bu ko'rsatkich 337 donaga teng bo'lib, 17,9 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

10 va 20 oktabr muddatda ekilgan variantlarda mos ravishda qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² maydonda qishlovdan oldin 389, 360 donani tashkil etib, qishlovdan so'ng 306, 278 donaga teng bo'lib, 21,3 %, 26 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

Xorazm viloyati sharoitida ekilayotgan kuzgi bug'doyning Gurt navining qishlash darajasi taxlil qilinganda quyidagi natijalar olindi.

2020-2021 yillar davomida Gurt navida 1 oktabrda ekilgan variantlar orasida ko'chat soni 1 m² maydonda qishlovdan oldin 409 donani, qishlovdan keyin 344 donani hamda nobud bo'lganlari 17,8 % ni tashkil qildi.

10 oktabr sanasida ekilgan variantda qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² 390 donani, qishlovdan keyin 310 donani, nobud bo'lganlari 20,5 % ni tashkil qildi.

Gurt navida 20 oktabr sanasida ekilgan variantda ko'chat soni 1 m² maydonda qishlovdan oldin 363 donani, qishlovdan keyin 274 donani hamda nobud bo'lganlari 24,5 % ni tashkil qildi.

2021-2022 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasining qishlash davrida harorat -10 ° C dan past bo'lgan kunlar 21 kunni tashkil etdi. Noyabr oyida minimal harorat -6,38 ° C, dekabr oyida -21,58 ° C, yanvar oyida -16,92 ° C, fevral oyida -10,5 ° C, mart oyida -4,85 ° C ni tashkil qildi. 2021-2022 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasi davridagi eng past harorat -21,58 ° C teng bo'ldi.

Zimnitsa navida 2021-2022 yillar davomida olib borgan kuzatuvlarimiz asosida 1-oktabrda ekilgan variantlar orasida qishlovdan oldin ko'chat soni 1 m² maydonda 399 donani tashkil etgan bo'lsa, qishlovdan keyin bu ko'rsatkich 327 donaga teng bo'lib, 18,0 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

10 va 20-oktabrda olib borgan kuzatuvlarimiz natijasida 1 m² maydonda qishlovdan oldin ko'chat qalinliklari mos ravishda 378 va 353 donaga teng ekanligi va bu ko'rsatkich qishlovdan keyin 294 hamda 263 dona ekanligi va nihollarning 22,2 %

va 25,5 % nobud bo'lganligi aniqlandi. 2021-2022 yillar davomida kuzgi bug'doyning Asr navida olib borilgan kuzatuvlar natijasida 1 oktabr muddatda ekilgan variantda nihollar soni qishlovdan oldin 403 donani, qishlovdan keyin 329 donani tashkil etib, nobud bo'lganlari 18,4 % ni tashkil qildi.

10 oktabr muddatida ekilgan variantda qishlovdan oldin 1 m² maydonda ko'chat soni 376 donani, qishlovdan keyin 293 donani hamda 22,1 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

20 oktabrda ekilgan variantlar ichida qishlovdan oldin nihollar soni 346 donani, qishlovdan keyin 255 donani hamda nobud bo'lganlari 26,3 % ni tashkil qilganligi aniqlandi.

2021-2022 yillar davomida Gurt navida qishlash darajasi o'rganilganda quyidagi natijalar qayd qilindi. 1 oktabr muddatida ekilgan variantlar ichida qishlovdan oldin nihollar soni 401 donani, qishlovdan keyin 329 donani, nobud bo'lganlari 18,0 % ni tashkil qildi. 10 oktabr sanasida ekilgan variantlarda nihollar soni qishlovdan oldin 379 donani, qishlovdan keyin 297 donani, nobud bo'lganlari 21,6 % ni tashkil qildi.

20 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni qishlovdan oldin 354 donani, qishlovdan keyin 265 donani, nobud bo'lganlari 25,1 % ni tashkil qildi.

2021-2022 yillarda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki oktabr oyida haroratning nisbatan pastroq bo'lishi kuzgi bug'doy navlarini unib chiqishini kechikishiga sabab bo'ldi. Kuzgi bug'doy navlarining kech unib chiqishi nihollarning yaxshi tuplanmasligiga, bu esa o'z navbatida o'simlikning sovuqqa chidamlilik darajasining tadqiqot olib borilgan boshqa yillarga nisbatan pastroq bo'lishiga sabab bo'ldi. 2022-2023 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasining qishlash davrida harorat -10 ° C dan past bo'lgan kunlar 28 kuni tashkil etdi. Noyabr oyida minimal harorat -7,1 ° C, dekabr oyida -16,03 ° C, yanvar oyida -19,07 ° C, fevral oyida -8,9 ° C, mart oyida -1,49 ° C ni tashkil qildi. 2022-2023 yillar davomida kuzgi bug'doy vegetatsiyasi davridagi eng past harorat -19,07 ° C teng bo'ldi.

2022-2023 yillar davomida esa 1 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda Zimnitsa navida 412 tani, qishlovdan chiqqanlari 343 tani hamda nobud bo'lganlari 16,7 % ni tashkil qildi.

10 oktabrda ekilgan variantda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 392 ta, qishlovdan keyin 310 tani tashkil etib, 20,9 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

20 oktabrda ekilgan variantda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 374 donani, qishlovdan keyin 283 donani tashkil qildi hamda nobud bo'lganlari 24,3 % ni tashkil qildi.

2022-2023 yillar davomida Asr kuzgi bug'doy navining sovuqqa chidamliligi taxlil qilenganda 1 oktabr muddatda ekilgan variantda qishlovdan oldin nihollar soni 1

m² maydonda 413 donani, qishlovdan keyin 342 donani hamda nobud bo'lganlari 17,2 % ni tashkil qilganligi aniqlandi.

10 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 399 donani, qishlovdan keyin 315 donani hamda 21,0 % nobud bo'lganligi aniqlandi.

20 oktabrda ekilgan variantda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 375 donani, qishlovdan keyin 281 donani hamda nobud bo'lganlari 25,1 % ni tashkil qilganligi aniqlandi.

2022-2023 yillar davomida Gurt navida 1 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 413 donani, qishlovdan keyin 345 donani, nobud bo'lganlari 16,5 % ni tashkil qildi.

10 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 398 donani, qishlovdan keyin 315 donani, nobud bo'lganlari 20,8 % ni tashkil qildi.

20 oktabr muddatida ekilganda qishlovdan oldin nihollar soni 1 m² maydonda 377 donani, qishlovdan keyin 290 donani hamda nobud bo'lganlari 23,1 % ni tashkil qildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, qishki sovuqqa chidamlilik darajasi kuzgi bug'doy navlarini 1 oktabr muddatida ekilganda yuqori ekanligi hamda Zimnitsa va Asr navlariga nisbatan Gurt navi past harorat stressiga chidamli ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabayeva X.N. Donli ekinlar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2009. 30-35 b.
2. Daminov Sh, Rahmatov N, Xabibullaev J. Namangan viloyati sharoitida yetishtirilayotgan yangi kuzgi bug'doy navlarining hosildorligi // "Global iqlim sharoitiga chidamli, yuqori hosil beradigan yangi boshqoli, dukkakli don, moyli va yem-xashak ekinlarni parvarishlashda yangi texnologiyalarni qo'llash istiqbollari" Andijon, 2024. 96-98 b.
3. Mamatqulova G.F, Erjigitov D.Sh, Muhammadiev O.A, Otajanova S.D, Turayev O.S, Kushanov F.N, Baboev S.K. Kuzgi bug'doy duragaylarining past harorat stressiga chidamliligini baholash // "Global iqlim sharoitiga chidamli, yuqori hosil beradigan yangi boshqoli, dukkakli don, moyli va yem-xashak ekinlarni parvarishlashda yangi texnologiyalarni qo'llash istiqbollari" Andijon, 2024. 122-125 b.
4. Сухоруков А.А, Бугакова Н. Э. Влияние засухи на формирование элементов структуры урожая сортов озимой пшеницы Молодой ученый. 2016. № 27.3 (131.3). с. 53-56
5. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. ЎзПИТИ. Тошкент, 2007, 139-б.

ИННОВАЦИОН ҚОБИЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.**Z.Q.Amonniyozov**Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi
boshqarmasi bosh mutaxasisi.

Таянч сўзлар. Мустақил, фаолият, изланиш, методи, ахборот, топширик, таҳлил, умумлаштириш, исботла, нотўғри.

Аннотация. Ушбу мақолада талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш ва уни такомиллаштириш методикаси ҳамда ташкил этилиш ёритиб берилган. Янги тадқиқотлар, изланишлар натижасида лойиҳаларнинг яратилиши ўқувчилар иштирокида ўқитувчи томонидан эмас, балки ўқитувчининг раҳбарлиги остида ва унинг ёрдами билан талабаларнинг ўзлари мустақил амалга оширади. Изланиш ва тадқиқотчилик методининг мазмни ёритиб берилган.

Мавзунинг долзарблиги. Талабаларнинг мустақил ўқув методларидан бири - баён қилинган материалларни мустақил таҳлил қилиш ҳамда изланиш янги тушунчалар моҳиятини ва фаолият усулларини очиш бўйича ўқувчилар мустақил ўқув фаолиятини ташкил қилиш методикасидан иборат.

Мақола баёни. Талабаларнинг мустақил ўқув методларидан бири - баён қилинган факт ва материалларни мустақил таҳлил қилиш ҳамда янги тушунчалар моҳиятини ва фаолият усулларини очиш бўйича талабалар мустақил ўқув фаолиятини ташкил қилишдан иборат. Изланиш методи ўқитувчининг суҳбат формасида ахборот беришдан кўра кўпроқ баён қилинган факт материалларни мустақил таҳлил қилиш ҳамда янги тушунчалар моҳиятини ва фаолият усулларини очиш бўйича талабалар фаоллигини ташкил қилишдан иборат. Изланиш методининг моҳияти шундан иборатки, янги қонун, қоидаларни кашф этиш талабалар иштирокида ўқитувчи томонидан эмас, балки ўқитувчининг раҳбарлиги остида ва унинг ёрдами билан талабаларнинг ўзлари мустақил амалга оширади. Изланиш методи ўқув материални диалог формасида баён қилиш:

а) янги билимни баён қилишда айрим масалалар ва топшириқлардан фойдаланиш; б) ўқув материални таҳлил қилиш ва умумлаштириш учун саволлар ва топшириқлар бериш; в) кичикроқ изланиш учун билишга оид масалаларни қўллаш, хулосаларни исботлаш, нотўғри фикрларни рад этиш; г) мавзуларни мустақил билишга оид атрофлича мунозаралар ташкил этишдир. Тадқиқот методи ўқитувчи томонидан талабалар олдида юқори

даражада муҳим бўлган назарий ва амалий тадқиқотлар топшириғи қўйиш йўли билан ташкил этилади.

Тадқиқот характеридаги топшириқларнинг, изланишга доир топшириқлардан фарқи шундаки, изланиш методида талабалар йиғилган фактлар (тажриба, кузатиш, адабиёт устида ишлаш) ва уларни назарий жиҳатидан таҳлил қилиш, системалаштириш ва умумлаштириш бўйича иш бажарсалар, кашфиёт ва ихтиролар талабалар томонидан факт материалларни таҳлил қилиш, умумлаштириш натижаси сифатида намоён бўлади.

Тадқиқот методида талаба мустақил равишда мантиқий операцияларни бажариб, янги тушунчалар ҳамда ҳаракатининг янги усуллар моҳиятини очади. Талаба мулоҳазаларининг бориши хулосаларнинг тўғри ёки нотўғрилиги ўқитувчи томонидан ўқувчи билан суҳбат қилиш процессида ёки унинг тадқиқоти натижасини оғзаки ёки ёзма баён қилганда аниқланади. Изланиш методи асосида ўрганишда, факт материал талабага ўқитувчи томонидан берилади, ҳамда биргаликда таҳлил қилинади. Ўқувчи ўқитувчининг ёрдамида янги тушунчанинг моҳиятини очиб беради. Тадқиқот характеридаги топшириқларнинг билишга оид топшириқлардан фарқи талабаларнинг мустақил ўқув – билиш фаолиятининг ахборотлар йиғиш ва уни таҳлил қилиш, муаммоларини мустақил равишда қўйишдан тортиб то уларни ҳал қилиш, ечимни текшириш ва янги билимларни амалда қўлланишгача бўлган циклни ўз ичига олади.

Талабалар тадқиқотни худди илмий тадқиқот сингари, кузатиш, материаллар тўплаш ва уларни таҳлил қилиш, тушунтириш ҳамда ўзлари кашф этган қонун ва қоидаларни қўлланиш босқичларига эга бўлиши керак. Тадқиқот характеридаги топшириқларнинг хусусиятларидан бири, дастлабки тўпланган материаллар таҳлил этилади.

Тадқиқот ишлари ташкил этиш шакллариغا кўра хилма-хил бўлиши мумкин: талабалар тажрибаси; илмий тажрибаларда иштирок этиш; экскурсия; архивларни ўрганиш; докладлар тайёрлаш, уни Талабалар ҳузурида ўқиш ва бошқалар киради. Дастурлаштирилган ўқитиш таълимнинг хусусиятлари - Талабалар махсус тайёрланган дидактик воситалар ёрдамида, мустақил равишда, янги билимлар ва ҳаракат малакаларини эгаллайдиган таълим жараёнини ташкил этиш. Дастурлаштирилган таълим ўқувчи мустақил ишларининг махсус тури билан боғланган экан, у мустақил билим олиш формаси деб, дастурлаштирилган қўлланмани эса, ўрганиш учун дарслик деб ҳисоблаш мумкин.

Дастурлаштирилган топшириқлар, Талабаларнинг қисман эсга тушириш, қисман янги билимларни ўзлаштириш фаолиятини талаб қиладиган, топшириқлар тизимидан иборат.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бегалов Б.А., Кудайбергенов А .К. Эффективность использования информационно-коммуникационных технологий на предприятиях. Ташкент: Фан, 2007. -1 4 0 с.

1. Bantova M.A, Beltyukova G.V, Polevshikova A.M.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.- Toshkent: O'qituvchi,1983.- 192 b

2. Бурилова, С.Ю. Межпредметная интеграция в учебном процессе технического вуза [Текст]: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.08 / Бурилова Светлана Юрьевна. - Новосибирск, 2001. - 22 с.

3. Braverman E.M., Prepodavanie fiziki, razvivayushchee uchenika // posobie dlya uchiteley i metodistov. Moskva. 2003. Assosatsiya uchiteley fiziki, - S 247-253.

5.Bektenyarova A.R. Mejpredmetnye svyazi kak uslovie aktivizatsii poznavatelnoy deyatelnoy uchaщixsya.: Avtoref. ... dis.kand.ped

EPIZIOTOMIYADAN KEYINGI ASORATLARNI OLDINI OLISH

Omonova Guljamol Raub qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

3-son akusher ginekologiya kafedrası 1-kurs klinik ordinatori

Ilmiy rahbar: Sattorov Asliddin Xayrullayevich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

3-son Akusher ginekologiya kafedrası assitienti

Annotatsiya: Epiziotomiyadan keyingi asoratlarning oldini olish muhim tibbiy muammo hisoblanadi. Ushbu maqolada epiziotomiya jarrohligidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan infeksiya, yallig'lanish, chandiq hosil bo'lishi kabi asoratlarning oldini olish usullari ko'rib chiqiladi. Profilaktik chora-tadbirlar, gigiyena qoidalariga rioya qilish va tiklanish jarayonini tezlashtirish usullari tahlil qilinadi.

Annotation: The prevention of complications after episiotomy is an important medical issue. This article discusses methods to prevent possible complications such as infection, inflammation, and scar formation after episiotomy surgery. Preventive measures, adherence to hygiene rules, and methods to accelerate the recovery process are analyzed.

Аннотация: Профилактика осложнений после эпизиотомии является важной медицинской проблемой. В данной статье рассматриваются методы предотвращения возможных осложнений, таких как инфекция, воспаление и образование рубцов после хирургического вмешательства. Анализируются профилактические меры, соблюдение гигиенических правил и способы ускорения процесса восстановления.

Kalit so'zlar: Epiziotomiya, asoratlar, infeksiya, yallig'lanish, chandiq, profilaktika, tiklanish.

Keywords: Episiotomy, complications, infection, inflammation, scar, prevention, recovery.

Ключевые слова: Эпизиотомия, осложнения, инфекция, воспаление, рубец, профилактика, восстановление.

Epiziotomiya – tug'ruq paytida vaginal va perineal to'qimalarni kengaytirish maqsadida amalga oshiriladigan jarrohlik kesigidir. Ushbu muolaja perineal yirtilar

xavfini kamaytirish, tugʻruq jarayonini tezlashtirish va chaqaloqning tugʻilishini osonlashtirish uchun ishlatiladi. Biroq, epiziotomiyadan keyingi jarrohlik aralashuvi baʼzi asoratlardan bilan kechishi mumkin. Shuning uchun, epiziotomiyadan keyingi tiklanish jarayonini yaxshilash va asoratlarning oldini olish tibbiyotning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Ushbu maqolada epiziotomiyadan keyingi asosiy asoratlardan va ularni oldini olishning ilmiy asoslangan usullari tahlil qilinadi. Epiziotomiyadan keyingi asoratlardan turli omillarga bogʻliq boʻlib, ularni uchta asosiy toifaga ajratish mumkin: infeksiyon, mexanik va funksional asoratlardan. Epiziotomiya kesigi ochiq yara hisoblanadi va bakterial infeksiyalarga moyil boʻladi. Infeksiyon asoratlarning rivojlanishiga quyidagi omillar sabab boʻlishi mumkin: Gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik – jarohatga bakteriyalar tushishi infeksiya rivojlanishiga olib keladi. Immunitetning zaifligi – homiladorlikdan keyingi gormonal oʻzgarishlar immunitetni pasaytirib, bakteriyalarga qarshi kurashish qobiliyatini kamaytiradi. Shifobaxsh muolajalarning notoʻgʻri bajarilishi – antiseptiklar va antibiotiklar yetarli darajada qoʻllanilmasa, infeksiya rivojlanishi ehtimoli ortadi. Infeksiyon asoratlarning klinik belgilari quyidagilardan iborat: Tikilgan joyda qizarish va shish. Doimiy ogʻriq va noqulaylik hissi. Yiringli ajralmalar va isitma. Mexanik asoratlardan epiziotomiya soʻngida notoʻgʻri tikish yoki haddan tashqari choʻzilish natijasida yuzaga keladi. Bular quyidagilarni oʻz ichiga oladi: Chandiq va fibroz toʻqima hosil boʻlishi – notoʻgʻri regeneratsiya natijasida chandiq oʻrnida zich fibroz toʻqima shakllanib, elastiklikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Toʻqimalarning yomon tiklanishi – notoʻgʻri yoki sust tikilgan joylarning qayta yorilishi yoki ochilishi. Perineal elastiklikning yoʻqolishi – perineumning normal holatini tiklash qiyinlashishi jinsiy hayot sifatiga taʼsir qilishi mumkin. Funksional asoratlardan mushaklar va nerv toʻqimalarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi: Qov mushaklarining zaiflashishi – epiziotomiya soʻngida notoʻgʻri tiklangan yoki zaiflangan mushaklar siydik tuta olmaslikka olib kelishi mumkin. Jinsiy disfunktsiya – haddan tashqari chandiqlanish va nervlarning shikastlanishi jinsiy aloqa vaqtida ogʻriq keltirishi mumkin. Asoratlarning oldini olish uchun ilmiy jihatdan asoslangan quyidagi strategiyalar qoʻllanilishi kerak: Epiziotomiyadan keyin infeksiyon jarayonlarning oldini olish uchun quyidagi choralar koʻriladi: Gigiyena qoidalariga rioya qilish – perineal sohani antiseptik eritmalar bilan muntazam tozalash va quritish kerak. Antibakterial vositalardan qoʻllash – yuqori infeksiya xavfi mavjud boʻlsa, shifokor tavsiyasiga binoan antibiotiklar qabul qilish. Havoni aylanishiga eʼtibor qaratish – tiklanish jarayonini tezlashtirish uchun yarani quruq va havodagi bakteriyalardan himoya qilish muhimdir. Toʻgʻri tikish texnikasidan foydalanish – jarrohlikda yuqori sifatli jarrohlik iplaridan foydalanish va optimal tikish texnikalarini qoʻllash kerak.

Reabilitatsion mashqlar – perineum mushaklarini tiklash va elastiklikni saqlash uchun Kegel mashqlari tavsiya etiladi. Yumshoq va qattiq ovqatlar balansiga e'tibor qaratish – qabziyatni oldini olish orqali tikilgan joyga bosim tushishining oldini olish mumkin. Fizioterapiya va reabilitatsiya mashqlari – maxsus mashqlar mushaklarning tiklanishiga yordam beradi. Jinsiy faoliyatni tiklash bo'yicha maslahatlar – shifokorlar jinsiy hayotga qaytish uchun optimal vaqt va profilaktik choralar bo'yicha maslahat berishlari kerak.

Xulosa

So'nggi tadqiqotlar epiziotomiyadan keyingi asoratlarni kamaytirishga qaratilgan bir nechta innovatsion yondashuvlarni taklif qilmoqda: Biopolimer asosidagi jarrohlik iplaridan foydalanish – o'z-o'zidan eriydigan iplar chandiqlik hosil bo'lish xavfini kamaytiradi. PRP (Platelet-Rich Plasma) terapiyasi – o'z qon plazmasidan foydalanish orqali to'qimalarni tiklash jarayonini tezlashtirish. Lazer terapiyasi – chandiqlanishning oldini olish va og'riqni kamaytirish uchun lazer texnologiyasidan foydalanish. Epiziotomiya tug'ruqning muhim jarrohlik aralashuvi bo'lib, ba'zi hollarda muqarrar hisoblanadi. Biroq, bu amaliyotdan keyingi asoratlarning oldini olish uchun gigiyena qoidalariga rioya qilish, infeksiya xavfini minimallashtirish, mexanik tiklanishni yaxshilash va fiziologik tiklanish usullaridan foydalanish talab etiladi. Zamonaviy innovatsion usullar, jumladan, lazer terapiyasi va PRP terapiyasi epiziotomiyadan keyingi tiklanish jarayonini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ayollar salomatligini saqlash va tiklanish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

References

1. Jiang, H., Qian, X., Carroli, G., & Garner, P. (2017). "Selective versus routine use of episiotomy for vaginal birth." *Cochrane Database of Systematic Reviews*, 2(CD000081). <https://doi.org/10.1002/14651858.CD000081.pub3>
2. Kettle, C., & Tohill, S. (2008). "Perineal care." *BMJ Clinical Evidence*, 5(0811).
3. Lede, R., Belizán, J., & Carroli, G. (2007). "Is routine use of episiotomy justified?" *American Journal of Obstetrics and Gynecology*, 196(6), 495.e1-495.e5. <https://doi.org/10.1016/j.ajog.2007.03.015>
4. Albers, L. L., Sedler, K. D., Bedrick, E. J., Teaf, D., & Peralta, P. (2005). "Factors related to perineal trauma in childbirth." *Journal of Midwifery & Women's Health*, 50(3), 197–202. <https://doi.org/10.1016/j.jmwh.2004.12.013>

5. Reis, R. R., Marziale, M. H. P., Cassiano, J. G. O., & Campos, F. F. (2020). "Care in the postpartum period: Prevention and treatment of episiotomy complications." *Revista Brasileira de Enfermagem*, 73(Suppl 3), e20190033. <https://doi.org/10.1590/0034-7167-2019-0033>

NIKEL (II) FTALOSIYANIN PIGMENT SINTEZI

Gaimov A.A. To'rayev X. X. Nabiyev D. A.


Termiz davlat universiteti Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43

E-mail: gaimovaa@gmail.com


Metall ftalosiyaniylar odatda ftalonitrilning metall xloridlar bilan o'zaro ta'siri natijasida, 200 dan yuqori haroratlarda qizdirilganda olinadi. C, ularning erituvchilarida [1] yoki termoyadroviy reaksiya usullaridan foydalanish. Biroq, bu usul makrosikl bilan xlorli aralashmalarga olib keladi va makrosikldagi xlori o'tib bo'lmaydigan qiladi. Metall dikloridlarning (titan, zirkoniy, gafniy) sof ftalosiyaniylarini olish uchun reaksiya aralashmasiga 2-metilnaftalin qo'shilishi taklif qilindi, ular osonlikcha xlorlanadi va tsiklda xlor chiqaradi. Ushbu usul bilan qalay, mis va alyuminiyning ftalosiyaniylarini ham olish mumkin. Ftalosiyaniylarning oksoformlarini olish uchun ularni to'g'ridan-to'g'ri sintez qilishdan ko'ra, mos keladigan dikloridlarning gidrolizidan foydalanish samaraliroq [2].

Hozirgi vaqtda tereftalik kislota hosilalari ftalosiyaniylar sintezida keng qo'llaniladi: dinitril, ftalimid, ftalik anhidrid, shuningdek tereftalik kislota murakkab kation mavjudligida. Boshlang'ich materialdan qat'i nazar, sintez har doim ftalik o-dinitrilning shakllanish bosqichidan o'tadi. Yakuniy bosqich iminoizindoleinining bipolyar ionlarini metall ioni atrofida guruhlashni o'z ichiga oladi, keyin ular tsiklga yaqinlashadi. Reaksiya mahsuldorligini nazorat qilish qiyin, lekin ko'p hollarda bu ko'rsatkich juda yuqori bo'lib qoladi (70%). Reaksiya quruq reagentlar eritmasida sintez qilish yoki qaynab turgan erituvchi (nitrobenzol, o-diklorobenzol, triklorobenzol, etilen glikol, kinolin) yordamida olinadi. Reaksiyada ishtirok etuvchi fragmentlar uchun strukturaviy formulalar 1 [3-4] raqamlarda keltirilgan.

Olingan pigment tarkibini tasdiqlash uchun fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilindi.



Rasm 1. Nikel ftalosianin organik pigmentni olish reaksiyasi



Rasm 2. Nikel ftalosianin IQ-spektri

Olingan birikmaning IQ-spektridan ko'rinib turibdiki, tereftalik kislotaning karboksil guruhlariga mos keladigan kuchli assimilyatsiya bantlari ko'rinmaydi. 3000 sm⁻¹ dan katta maydonda qoldiq suv molekulariga tegishli valentlik assimilyatsiya bantlari mavjud. Tereftal kislotaning karbonil guruhiga mansub assimilyatsiya tasmasi amidlarga tegishli 1689 sm⁻¹ dan 1661 sm⁻¹ gacha o'zgarganligi kuzatildi. Bundan tashqari, izoindol halqasining valentlik tebranishlari bilan bog'liq 1409 sm⁻¹ mintaqasida va deformatsiya tebranishlari bilan 866 sm⁻¹ mintaqalarida tebranishlar kuzatildi. 1508 sm⁻¹ valentligida va 1018 sm⁻¹ domenlarida pirol halqasining tebranishlari ham mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. O. Yusupov, X. S. Beknazarov, A. T. Tillaev, B. E. Babamuratov // tarkibida azot, fosfor, nikel bo'lgan makrogeterosiklik ftalosianin pigmentining yangi turini o'rganish // kompozitsion material. Toshkent -2019. – № 3. - S. 17-20.
2. Yusupov M. O., Beknazarov X. S., Tillaev A. T., Djalilov A. t // Loko-bo'yoq moddasi tarkibidagi yangi o'z ichiga olgan kobalt ftalosianin pigmentining Termodanalitik tahlili // kompozitsion material. Toshkent -2019. – № 3. - S. 24-27.
3. Yusupov M. O., Sharipova N. O., Beknazarov X. S., Djalilov A. T. // azot, fosfor, kobalt tutuvchi makrogeterosiklik ftalosianin pigmentining yangi turini tadqiq etish / / "fan va texnika taraqqiyoti" ilmiy–texnik jurnali 5/2019 Buxoro-s.63-68.
4. M. O. Yusupov, X. S. Beknazarov, A. T. Tillaev, Djalilov A. T. // yo'l belgilarini bo'yashda yangi turdagi kobalt ftalosianin pigmentini qo'llash / / Namdu ilmiy axborotnomasi-Nauchniy Vestnik Namgu No. 2 Namangan-s.2020

PROSPECTS OF USING BIODEGRADABLE FILMS FOR PACKAGING PHARMACEUTICAL SUBSTANCES.

Babamuratov Bekzod Ergashevich

Email - babamuratov1985@mail.ru

Sayfiddin Sharopov

Email - 1996sayfiddin25@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tibbiyot fakulteti

Introduction: Modern pharmaceutical industries focus not only on developing new medicinal substances but also on improving packaging methods to ensure safety and efficiency. Traditional plastic packaging materials pose significant environmental concerns, leading to increased interest in biodegradable films as an alternative. These materials effectively protect pharmaceutical substances while minimizing ecological harm. This thesis discusses the significance, advantages, and future prospects of biodegradable films in the pharmaceutical industry.

Keywords: Biodegradable films, eco-friendly packaging, pharmaceutical substances, polymer materials, biological safety, pharmaceutical industry, recyclable materials, alternative packaging technologies.

Main Body

1. Characteristics of Biodegradable Films

Biodegradable films are polymer-based materials derived from natural or synthetic sources that decompose into harmless substances under environmental conditions or through biological activity. These films are primarily made from starch, polylactic acid (PLA), polyhydroxyalkanoates (PHA), and other biopolymers. Their ability to break down naturally makes them an excellent choice for pharmaceutical packaging, reducing long-term waste accumulation.

2. Advantages of Biodegradable Films in Pharmaceutical Packaging

The use of biodegradable films in pharmaceutical packaging offers several advantages:

Environmental Sustainability – Unlike conventional plastics, biodegradable films reduce pollution and carbon footprint.

Enhanced Safety – Many biodegradable materials are non-toxic, reducing the risk of chemical contamination in medicines.

Biocompatibility – Some biopolymers are compatible with drug formulations, ensuring stability and prolonged shelf life.

Regulatory Compliance – Many countries are implementing stricter environmental regulations, making biodegradable packaging a viable and necessary alternative.

3. Challenges and Limitations

Despite their benefits, biodegradable films also face some challenges:

Cost Factors – Production of biodegradable materials is often more expensive than conventional plastics.

Durability and Storage – Some biodegradable films may have lower mechanical strength and shorter shelf life compared to synthetic plastics.

Mass Production Issues – Large-scale manufacturing and supply chain logistics still require significant optimization.

4. Future Prospects of Biodegradable Films in the Pharmaceutical Industry

The development of biodegradable films is expected to advance further due to:

Technological Innovations – Ongoing research aims to improve the durability, flexibility, and cost-effectiveness of biopolymers.

Increased Consumer Awareness – Growing global concern for sustainability is driving demand for environmentally friendly packaging.

Government Regulations and Incentives – Many governments are encouraging industries to adopt biodegradable alternatives through policies and funding.

Conclusion: Biodegradable films present a promising solution for sustainable pharmaceutical packaging. Despite current challenges, advancements in material science, increasing environmental regulations, and consumer demand for eco-friendly alternatives are driving their adoption. As research continues, the pharmaceutical

industry is likely to see significant progress in biodegradable packaging technologies, ensuring both environmental safety and product efficiency.

TALABALARNING KASBIY VA SHAXSIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Haydarov Latifjon Rustamovich

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati muhokama qilinadi. Talabalar o'z kasbiy sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilimlarga, balki shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham ehtiyoj sezadilar. Maqolada kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsiy ko'nikmalarni oshirish va o'rganishning yangi metodlari orqali talabalarni kelajakdagi ish hayotiga tayyorlash masalalari ko'rib chiqiladi. Bunda innovatsion ta'lim metodlari, jamoaviy ishlash, kreativ fikrlash, va liderlik ko'nikmalari o'rganish jarayonining ajralmas qismlariga aylanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy qobiliyat, shaxsiy rivojlanish, ta'lim metodlari, jamoada ishlash, innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash, liderlik, o'zgarishga tayyorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность развития профессиональных и личных качеств студентов. Для достижения успеха в своей профессиональной сфере студенты нуждаются не только в профессиональных знаниях, но и в развитии личных навыков. В статье рассматриваются вопросы развития профессиональных качеств, улучшения личных навыков и подготовки студентов к будущей профессиональной жизни через современные методы обучения. Подчеркивается необходимость использования инновационных методов, командной работы, творческого мышления и лидерских качеств в процессе обучения.

Ключевые слова: Профессиональные качества, личностное развитие, методы обучения, командная работа, инновационный подход, творческое мышление, лидерство, готовность к изменениям.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi talabalarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Global miqyosda ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va rivojlanishlar yangi metod va texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning har tomonlama o'sishi va rivojlanishiga xizmat qilmoqda[1]. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar haqida so'z yuritimiz. Talabalar, nafaqat kasbiy bilimlarni, balki

shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishlari lozim. Kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish esa nafaqat talabalar uchun, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuritamiz[2].

Kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish talabalarni o'z sohasida malakali va muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lishlariga yordam beradi. Bugungi kunda ish bozori o'zgaruvchan va talablar yuqori. Talabalar nafaqat teoriya, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak. Innovatsion texnologiyalar va global iqtisodiy muhitning tez o'zgarishi kasbiy bilimlarni va malakalarni doimiy ravishda yangilashni talab qiladi[3]. Talabalarning kasbiy qobiliyatlari rivojlanishi ularning professional faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarurdir. Ya'ni, dasturlash, marketing, muhandislik yoki boshqa sohalarda amaliy tajriba va maxsus ko'nikmalar, talabalarni ishga joylashish jarayonida raqobatbardosh qiladi.

Shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish: O'z-o'zini anglash va ijtimoiy muvaffaqiyat

Shaxsiy qobiliyatlar, ayniqsa o'z-o'zini anglash, muloqot qilish, vaqtni boshqarish, stressni yengish kabi ko'nikmalar, talabalar hayotining barcha jabhalarida ularga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish, talabalar o'zlarini yanada samarali ifoda eta olishlari, boshqalar bilan muloqot qilishda muvaffaqiyat qozonishlari va hayotdagi har qanday vaziyatda maqsadlariga erishishlari uchun zarurdir. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat talabaning o'zining shaxsiy hayoti, balki ijtimoiy va professional hayotida ham muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Bugungi dunyoda tez o'zgarayotgan texnologiyalar va mehnat bozorining dinamikasi talabalarni yangi bilimlarni o'rganishga va moslashuvchan bo'lishga undaydi[4]. Talabalar yangi sharoitlarga tez moslasha olishlari va har qanday o'zgarishlarga ochiq bo'lishlari kerak. Yangi texnologiyalar, kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. O'rganishning yangi metodlari, masalan, onlayn kurslar va interaktiv ta'lim usullari talabalarni innovatsion g'oyalarga ochiq qilishga yordam beradi. Bu esa talabalarni o'z kasblarini samarali bajarish va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni egallashga undaydi. Jamoada ishlash va liderlik: Ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish[5].

Kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida jamoada ishlash va liderlik ko'nikmalarini oshirish ham katta ahamiyatga ega[6]. Talabalar jamoaviy ishda samarali qatnashish, boshqaruv va rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olishadi. Jamoaviy ish orqali talabalar bir-birlarini tushunish, qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni bo'lishish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Shu

bilan birga, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish talabalarni kelajakda katta tashkilotlarda muvaffaqiyatli boshqaruvchilar bo'lishlariga tayyorlaydi.

O'z-o'zini baholash va o'zgarishga tayyorlik

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim jihati bu o'z-o'zini baholash va o'zgarishga tayyor bo'lishdir. Talabalar o'z qobiliyatlarini baholab, kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu jarayon, o'z-o'zini anglashga, o'zgarishlarga tayyor bo'lishga va doimiy ravishda o'zini takomillashtirishga yordam beradi. Kasbiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar o'zlarini baholash va o'zgarishga tayyor bo'lishlari zarurdir.

Talabalarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish – bu ularning nafaqat o'qishdagi muvaffaqiyatlarini, balki kelajakdagi professional va ijtimoiy hayotidagi yutuqlarini ham ta'minlaydi. Kasbiy qobiliyatlar talabalarni ishga joylashish va o'z sohasida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradigan asosiy omil bo'lsa, shaxsiy qobiliyatlar esa ular uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ta'lim tizimi ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishi, talabalarga keng ko'lamli bilim va ko'nikmalarni o'rgatishi kerak. Bu nafaqat talaba, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lib, uning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Хўжжиев, М. Я. (2020). Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока. *Universum: психология и образование*, (1 (67)), 10-13.
2. Mahmudovich, X. M., Kuchkorovich, J. A., & Xo'Jjiyev, M. (2021). Technology of using E-learning modeling programs in teaching special subjects in professional education. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 5403-5411.
3. Таиров, Б. Б., Хўжжиев, М. Я., & Ўғли, Қ. З. А. (2023). ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНИКОВ. *Universum: технические науки*, (5-2 (110)), 29-36.
4. TAMOYILLARI, B. A. O. D. MASOFAVIY TA'LIM ORQALI UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARINI KOGNITIV-VIZUAL YONDASHISH ORQALI, TALABALAR.
5. Khojjiyev, M., & Karshiyev, Z. (2024). METHODOLOGY OF INSPECTION OF GAS METERS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(11), 20-23.
6. Abdurasulovich, K. J., Anvarovich, A. A., Mamatkulovich, Y. U., Yangiboevich, K., & Sobirovna, M. M. (2020). The advantages of the methodology of preparing students for innovative activity on the basis of visual teaching of special disciplines. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 1244-1251.

**PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY STRESSNING IJTIMOIIY
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Xotamova Madinabonu Ilhomjon qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Psixologiya mutahassisligi

I bosqich magistranti

madinaxatamova12@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada shaxsning kasbiga nisbatan faolligi va qiziqishini soʻnishi mexanizmlariga eʼtibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur xolatdagi shaxslarga qanday yordam berish yoʻllariga toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: stress, kasbiy soʻnish, zerikish, kasbidan bezish, kasbiy “menlik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, layoqat.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ****Хотамова Мадинабону – дочь Илхомджона**

Ташкентский государственный университет востоковедения

Психология Магистрант первой степени.

madinakhatamova12@gmail.com**АННОТАЦИЯ**

В данной статье основное внимание уделяется механизмам угасания активности и интереса человека к профессии, и в то же время уделяется внимание тому, как помочь людям в этой ситуации.

Ключевые слова: стресс, профессиональное выгорание, скука, профессиональное выгорание, профессиональное Я, профессиональная компетентность, профессиональное сотрудничество, компетентность.

**SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL
STRESS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY**

Khotamova Madinabonu is the daughter of Ilhomjon

Tashkent State University of Oriental Studies

Psychology major

Graduate student of the first stage

madinakhatamova12@gmail.com

ANNOTATION

This article focuses on the mechanisms by which a person's activity and interest in the profession fades, and at the same time, it focuses on how to help people in this situation.

Key words: stress, professional burnout, boredom, job burnout, professional self, professional competence, professional cooperation, competence.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'tkazgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ishlab chiqarish rivojlangan davlatlarda 10% aholi jiddiy asab kasalliklariga chalinganlar. Hozirda markaziy nerv sistemasidagi jarayonlarga bog'lik kasalliklar ko'paymoqda, nevrotik ko'rinishlar organizmning funksional tizimidagi boshqa buzilishlarga olib keladi. Shuning uchun stressni yuzaga kelish sabablari, uni kechishi, oqibati va bartaraf etish muammolari bugungi kunda nafaqat tibbiyot sohasining vakillarini, balki psixolog, pedagog va huquqshunoslarning ham e'tiborini tortib kelmoqda. Agarda, birinchi guruhdagi mutaxassislar stress asnosida yuzaga kelgan biron bir kasallikni davolashning farmakologik va jarrohlik yo'llarini izlasalar, ikkinchi guruhdagilar uni qay holda yuzaga kelish sabablari, organizmning umumiy faoliyatiga ta'sirini tadqiq etadilar. Uchinchi guruhdagilar esa insonning xulq-atvoridagi va o'quv faoliyatidagi u yoki bu o'zgarishlarda stressning o'rnini belgilash uchun ish olib boradilar. Huquqshunoslar esa jinoyat sodir etilishi, uni oldini olish, ya'ni profilaktika o'tkazish jarayonida stressga e'tibor beradilar. Ammo ularni birlashtiruvchi yagona asos bu inson omilidir. Bunda u ham tadqiqot obyekti, davolanuvchi, tarbiyalanuvchi, bemor, jabrlanuvchi va da'vogar vazifasini o'tashi mumkin.

Jahon miqyosida ijtimoiy intergrasiya, globallashuv va axborotlashgan tendensiyalarining kuchayib borishi ta'lim tizimida o'qituvchilarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada jiddiyroq e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Jumladan o'qituvchilarning bugungi kunda kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan kasbiy stress omillarini o'rganish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor masalalar bo'yicha muhim tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı isloxtlar talabiga to'la javob beruvchi,

intelektual salohiyati yuqori, keskin o'zgarishlar tez moslasha oladigan, raqobat bardosh, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga quyilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda pedagoglik faoliyati yuqori maoshga ega va talabgor kasblardan biri bo'lishiga qaramasdan bu kasbni tashlab ketayotgan va ba'zi bir yoshlarni bu kasbni egallashga bo'layotgan qiziqishlarini so'ndirayotgan omillar mavjud. Biz bugungi kunda zamonaviy taraqqiyot davrida ya'ni XXI asrda yashab kelmoqdamiz va bu esa ba'zi bir muammolarga ham bizni yetaklamoqda desam mubolag'a bo'lmaydi. Bu sabablardan asosiy sababi hozirgi kundagi bizni hammamizga ma'lum bo'lgan ijtimoiy psixologik sabablardir. Birinchi raqamli sababi esa bu stressing ko'pligidir. Ta'lim muassasalari hozirgi kunda usozlarga o'z vazifasidan ham ko'proq vazifa berishi va bu ularning kunlik majburiyatiga aylanib qolgani hech kimga sir emas. Bu esa har qanday insonni charachatadi va ularni bu kasbdan ko'ngillari qolishiga sababchi bo'ladi. Psixologik tadqiqotlardan ham bu misolni yaqqol qayta va qayta tasdiqlagan desam mubolag'a bo'lmaydi. Agarda inson hayotida stress miqdori oshib ketsa bu uning kunlik samarador ishlashini pasaytirib yuboradi va albatta ruhiy holatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Chunki insonning ruhiy holati unga huddi jismoniy holatidek bir xil miqdorda zarar yetkazishi aniqlangan. Olimlarning so'ngi taqdiqotlariga asosan agar inson ruhiy tomondan iztirib cheksa u huddi tanasidan zarb olgandek og'riqni his qilgan ekan. Chunki bizning ong ostimiz va ongimiz huddi yosh bolaning ongi kabidir. U haqiqat va yolg'onni anglay olmaydi. Bu so'zim bilan ya'ni agar siz bir yolg'on voqeani hayotda sodir bo'lgan deb ishonish ma'lumotini miyyangizga yetkatsangiz, u buni huddi hayotda bo'lgan deb hisoblaydi va bu buni jiddiy qabul qiladi. Shuning uchun pedagoglarni o'z ishi, rahbariyat va talabalardan davomli ravishda olayotgan stressni va ruhiy azoblari ularga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham bu ularni kasblaridan so'nishga olib keladi.

Xulosa Psixologik stressga xar doim inson organizmidagi fiziologik moslashish mexanizmining natijasida sifatida qaraladi, uning biologik mexanizmlari esa o'zining alohida tabiati va mazmuniga ega. Bu ikki mexanizm xaqidagi tushunchani aniqlashtirib olmasdan turib, stressli ta'sirlarga nisbatan inson tomonidan bildiriladigan murakkab va qarama qarshi xarakterga ega bo'lgan reaksiyalarni tushuntirib bo'lmaydi. Mashhur kanadalik fiziolog Gans Sel'e esa 1936-yilga yilda o'zining "Umumiy adaptasiya sindromi" xaqidagi birinchi ilmiy ishini nashr qildi, lekin uzoq vaqtgacha "stress" tushunchasini qullamay, uning o'rniga "nerv psixik zuriqish" tushunchasidan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аватков В.А. Постсоветское пространство и Турция: итоги 30 лет // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. – 2021. – Т. 14. № 5. – С. 162–176
2. Аватков В.А., Сбитнева А.И. Новый национализм Турецкой Республики // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия Политология. – 2022. – Т. 24, № 2. – С. 291–302.
3. Грозин А.В. Политика Турции в постсоветской Азии: подходы, институты, перспективы // Постсоветский материк. – 2021. – № 2(30). – С. 25–48. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politika-turtsii-v-postsovetskoy-azii-podhody-institutyperspektivy> (дата обращения 20.03.2023).
4. Исламов Д. Саммит Организации тюркских государств в Самарканде: между иллюзией и реальностью // РСМД. – 2022. – 23.11. – URL: <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/columns/postsoviet/sammitorganizatsii-tyurkskikh-gosudarstv-v-samarkande-mezhdu-illyuziey-i-realnostyu/> (дата обращения 02.02.2023).

KARIES KASALLIGIDA TISH QATTIQ TO'QIMALARINI CHARXLASH MEZONLARI VA TEXNIKASI

Ismoilova Umiya G'ayrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi

umiyaismoilova2@gmail.com

Annotatsiya

Karies – odontogen patologiyalardan biri bo'lib, emal va dentinning demenerializatsiyasi va destruktiv jarayonlari Kirish

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, aholining 80-98% qismi karies bilan to'qnash kelad

Tish qattiq to'qimalarining morfologik xususiyatlari va kariyes patogenezi Tish qattiq to'qimalari quyidagilardan iborat:

- ****Emal**** – 96% gidroksiapatit kristallaridan tashkil topgan, yuqori mineralizatsiya darajasi bilan ajralib turadi.
- ****Dentin**** – 70% mineral komponentlar, 20% organik matriks va 10% suvdan iborat bo'lib, mikroskopik dentin t
- ****Sement**** – tish ildizini qoplaydigan to'qima bo'lib, periodontal ligament bilan bog'lanadi.

Karies patogenezi tish plastinkasidagi streptokokk va laktobakteriyalar tomonidan organik kislotalar hosil bo'lishi Tish charxlash mezonlari

Tish charxlash jarayoni quyidagi asosiy mezonlarga asoslanadi:

- ****Minimal invazivlik**** – sog'lom to'qimalarni maksimal darajada saqlash.
- ****Biokompatibilitet**** – tiklovchi materiallarning tish to'qimalari bilan uyg'unligi.

- ****Biomekanik mustahkamlik**** – tish strukturasi funksional yuklanishga mosligi.
- ****Estetik rekonstruksiya**** – plomba va protez materiallarining tabiiy ko‘rinishi.
- ****Og‘riqsiz texnologiyalar**** – analgeziya va sedatsiya yordamida bemorning qulayligini oshirish.

Tish charxlash texnikalari va ularning ilmiy tavsifi

1. ****An’anaviy burg‘ular yordamida charxlash****

- ****Ustunliklari****: Yuqori kesish qobiliyati, tezkor ishlov berish, universal qo‘llash imkoniyati.
- ****Kamchiliklari****: Termal va mexanik stress natijasida pulpa shikastlanish xavfi, mikroyoriqlar hosil bo‘lish ehti

2. ****Mikroskop ostida charxlash****

- ****Ustunliklari****: Yuqori aniqlik, minimal invaziv yondashuv, pulpa va dentinning yaxshi saqlanishi.
- ****Kamchiliklari****: Maxsus optik asboblardan talab qiladi, operatsiya davomiyligi ortadi.

3. ****Lazer yordamida charxlash****

- ****Ustunliklari****: Noinvaziv ishlov berish, og‘riqsiz muolaja, dezinfeksiya effektiga ega.
- ****Kamchiliklari****: Yuqori narx, ba’zi qattiq to‘qimalar uchun cheklangan samaradorlik.

4. ****Abraziv havo oqimi yordamida charxlash****

- ****Ustunliklari****: Kontakt bo‘lmagan texnika, tish yuzasiga minimal zarar yetkazish.
- ****Kamchiliklari****: Katta kavitetlar uchun yetarli emas, yuqori bosimli qurilma talab qiladi.

5. ****Ultrasonik charxlash****

- ****Ustunliklari****: Yumshoq va past shovqinli ishlov berish, minimal diskomfort.

- ****Kamchiliklari****: Faqat yuzaki kariyes uchun samarali, jarayon davomiyligi uzoqroq.

Ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy innovatsiyalar

Soʻnggi yillarda nanokompozit materiallar, sunʼiy intellekt yordamida rentgen tahlili, shuningdek, regenerativ endo

Xulosa va tavsiyalar

1. Karies davolashda optimal charxlash texnikasi individual holatga qarab tanlanishi lozim.
2. Minimal invaziv yondashuvlar tish toʻqimalarining uzoq muddatli saqlanishiga yordam beradi.
3. Zamonaviy laser va abraziv texnologiyalar stomatologik amaliyotning yangi bosqichini ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekjanova O.Ye., Yusupalixodjaeva S.X. "Klinik restavratsion stomatologiya". Toshkent, 2019.
2. Ziyayeva M., Bahodirova R. "Terapevtik stomatologiya". Toshkent, 2013.
3. Glick M. "Burket's Oral Medicine". Shelton, 2015.
4. Heymann H.O., Swift E.J. "Sturdevant's Art and Science of Operative Dentistry". St. Louis, 2019.
5. WHO Dental Caries Report 2023.
6. Stomatologiya xalqaro jurnali (International Journal of D

MOLIYAVIY MENEJMENTDA INVESTITSIYAVIY QARORLARNI QABUL QILISHDA KAPITALNING TUZILISHI VA UNING SAMARADORLIGI

Xalilova Farida

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy menejmentda kapital tuzilishi va uning investitsiyaviy qarorlarga ta'siri tahlil qilinadi. Kapital tuzilishi korxonaning moliyaviy strategiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda moliyaviy rivojlanishdan foydalanish, kompaniyaning baholanishini aniqlash hamda kapital tuzilishining korxonada faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Samarali kapital tuzilishi investitsiyalarni jalb qilish va daromadlarni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Moliyaviy menejment, kapital tuzilishi, investitsiyaviy qarorlar, moliyaviy rivojlanish, foyda, risk, samaradorlik.

Abstract

This article analyzes the capital structure in financial management and its impact on investment decisions. Capital structure plays an important role in determining the financial strategy of an enterprise. The study examines the use of financial leverage, determining the valuation of a company, and the impact of capital structure on the performance of an enterprise. An effective capital structure is important in attracting investments and increasing profits.

Keywords: Financial management, capital structure, investment decisions, financial leverage, profit, risk, efficiency.

Kirish. Moliyaviy menejment korxonaning moliyaviy resurslarini boshqarishni o'z ichiga oladi, va bu jarayonda kapital tuzilishini to'g'ri tashkil qilish muhimdir. Investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda kompaniyaning qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi muvozanatini topish, moliyaviy rivojlanishdan samarali foydalanish, kapital sarfini optimallashtirish muhimdir. Kapital tuzilishi korxonaning moliyaviy xavf-xatarlarini boshqarish, likvidlikni ta'minlash va daromadlilikni oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy menejment korxonaning moliyaviy resurslarini boshqarish jarayonini qamrab oladi. Bu jarayonning asosiy maqsadi – korxonada faoliyatining samaradorligini ta'minlash, risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish va kapitalning

optimal tuzilishini tanlashdir. Kapital tuzilishi – bu korxonaning moliyaviy manbalarini qarz va o‘z kapitaliga ajratish tartibi bo‘lib, u moliyaviy qarorlarni qabul qilishda va investitsiyalarga ta'sir ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Korxonaning kapital tahlili va samaradorligi investorlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu qarorlar korxonaning kelajakdagi rivojlanishini belgilaydi. Shu sababli, kapital tuzilishini to‘g‘ri tashkil qilish korxonaning investitsiya kiritish imkoniyatlarini yaxshilash va foydalilik darajasini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Kapital tuzilishi kompaniyaning qarz va o‘z kapitalining nisbatidir. Moliyaviy rihaglardan foydalanish kompaniyaning qarz mablag‘lari bilan o‘z kapitalini to‘g‘ri boshqarishni anglatadi. Qarz mablag‘lari daromadni ko‘paytirish imkoniyatini bersa, shu bilan birga, qarzning ko‘payishi riskni ham oshiradi. Shu bois, to‘g‘ri kapital tuzilishini tanlash kompaniyaning moliyaviy xavfsizligi uchun muhimdir.

Kapital tuzilishi va korxonaning baholanishi:

Kapital tuzilishining korxonaga bahosiga ta'siri ham muhimdir. Korxonaning kapital narxi uning bozor qiymatini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi. Qarz va o‘z kapitalining muvozanati kompaniyaning narxiga bevosita ta'sir etadi, chunki kapital narxi past bo‘lganda kompaniyaning rentabelligi oshadi.

Investitsiyaviy qarorlarga ta'sir:

Kapital tuzilishi investorlar uchun ham muhimdir, chunki u korxonaning likvidlik darajasini ko‘rsatadi. Mos ravishda, samarali kapital tuzilishi investitsiyalarni jalb qilishda va ularni maqsadli boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Investorlar uchun qarz vositalaridan foydalanish darajasi va likvidlik juda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Qarz va o‘z kapitalining muvofiqlashuvi:

Kapital tuzilishining eng samarali modellaridan biri — bu qarz va o‘z kapitalining muvozanatini topishdir. Bu muvozanat kompaniyaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, riskni minimallashtiradi va daromadlarni oshiradi.

1. Kapital tuzilishi omillari:

Korxonaga kapitalning tuzilishi qarz va o‘z mablag‘larining muvozanatidan iborat. Korxonaning kapitalni qanday taqsimlashi uning moliyaviy samaradorligini belgilaydi. Qarz kapitalidan foydalanish korxonaga qo‘shimcha resurslar jalb qilish imkonini beradi, ammo bu qarzning ortishiga, shu bilan birga, risklarning oshishiga olib keladi. O‘z kapitalidan foydalanish esa ko‘proq xavfsizlikni ta'minlaydi, lekin moliyaviy resurslar cheklangan bo‘ladi. Kapital tuzilishini tanlashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

Risk darajasi: Korxonaning qarzdin qanday foydalanishi unga bog'liq risklarni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Yuqori riskga ega bo'lgan qarz tuzilishi moliyaviy stressga olib kelishi mumkin.

Daromadlilik: Qarz kapitalidan foydalanish daromadlilikni oshirishi mumkin, chunki qarz arzon moliyaviy manba hisoblanadi, ammo u foiz to'lovlari va risklarni oshiradi.

Likvidlik: Kapital tuzilishi korxonaning likvidligi, ya'ni qarzlarni o'z vaqtida qaytarish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori likvidlikka ega bo'lgan kompaniyalar qarz olish orqali rivojlanishni tezlashtirishi mumkin.

2. Moliyaviy richaglar va riskni boshqarish:

Moliyaviy richag – bu qarz mablag'laridan foydalangan holda kompaniyaning daromadlilikini oshirish usuli hisoblanadi. Moliyaviy richaglar samarali qo'llanganda korxonalar moliyaviy resurslaridan ko'proq daromad olishi mumkin. Shu bilan birga, qarzni oshirish bilan moliyaviy xavf-xatarlar ham ortadi. Shu sababli, moliyaviy menejmentning vazifasi risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni topishdir. Samarali boshqaruv qarzni ortiqcha yuk bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik va korxonani moliyaviy tanglikdan himoya qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. Kapitalning narxi va investitsiyaviy qarorlar:

Kapitalning narxi korxonaning qarz va o'z mablag'larining umumiy qiymati sifatida aniqlanadi. Bu narx investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kapital narxi qanchalik past bo'lsa, kompaniya investitsiyalarini samarali amalga oshirishi shunchalik oson bo'ladi. Qarzdin foydalangan holda kapital narxini pasaytirish mumkin, ammo risklarni oshirishdan ehtiyot bo'lish kerak. Investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishda kapitalning past narxi korxonaga raqobatchilar oldida ustunlik berishi mumkin, lekin bu qarz tuzilishining optimal darajada saqlanishiga bog'liq.

Xulosa. Kapital tuzilishi korxonaning moliyaviy samaradorligiga va investitsiyaviy qarorlarning natijasiga katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri kapital tuzilishi strategik qarorlarni qabul qilishda muhim omil bo'lib, u kompaniyaning moliyaviy xavfsizligini va likvidlikni ta'minlaydi. Moliyaviy richaglardan samarali foydalanish va kapital tuzilishini optimallashtirish kompaniyaning daromadlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Kapital tuzilishi moliyaviy menejmentning muhim qismlaridan biri bo'lib, u korxonaning barqarorligi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Samarali kapital tuzilishi moliyaviy resurslardan to'g'ri foydalanish, risklarni kamaytirish va daromadlilikni oshirishga yordam beradi. Qarz va o'z mablag'larining muvozanatli tuzilishi, moliyaviy richaglar va risklarni boshqarish korxonaning muvaffaqiyatiga olib

keladi. Shu bois, kapital tuzilishini optimallashtirish moliyaviy menejment uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Qo'shimcha ma'lumotlarga ko'ra, kapital tuzilishi nafaqat moliyaviy jihatdan, balki strategik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u korxonaning moliyaviy salohiyati va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Breyli, R. A., Mayers, S. K. (2010). Korporativ moliya prinsiplari. Moskva: Yuniti-Dana.
2. Ross, S., Vesterfild, R., Jordan, B. (2011). Korporativ moliyaning asoslari. Moskva: Vilyams.
3. Damodaran, A. (2006). Investitsion baholash. Har qanday aktivlarni baholash usullari va vositalari. Moskva: Alpina Pablisher.
4. Modilyani, F., Miller, M. (1958). Kapital qiymati, korporativ moliya va investitsiya nazariyasi. American Economic Review, 48, 261-297.
5. Jenson, M., Meking, U. (1976). Kompaniya nazariyasi: boshqaruv xarajatlari, agentlik xarajatlari va mulkchilik tuzilishi. Journal of Financial Economics, 3, 305-360.

“USMONIYLAR DAVRI XUNARMANDCHILIGI XUSUSIDA ”

Narzullayeva Marjona Zohidovna

Samarqand Davlat Universiteti, Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi.

ANNOTATASIYA: Ushbu maqolada 6 asr davomida mavjud bo'lgan Usmoniylar imperiyasida mavjud bo'lgan hunarmandchilik turlari, xususan musiqa asboblari, musiqa turlari, sulton harbiy orkestri, o'ymakorlik, baliqchilik xo'jaliklari, gilam to'qish san'ati, sultonlarning mashg'ul bo'lgan hunarmandchiligi, qurilish san'ati, hamda hozirgi kungacha saqlanib qolgan turlari haqida keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: Mehmet II, Samakara, Salim I, gilam to'qish san'ati, san'at, o'ymakorlik, musiqa, mehterlar, keman, baliqchilik, skumbriya

Dunyo tarixida 1299-1922-yillar davomida mavjud bo'lgan ulkan imperiya Usmoniylar imperiyasi haqida fikr yuritar ekanman, men ushbu maqolamda aholining qaysi hunarmandchilik turlari bilan shug'ullanganligiga e'tibor berishga qaror qildim. Usmoniylar imperiyasida; hunarmandchilik, bog'dorchilik, baliqchilik, dehqonchilik, savdo rivojlangan. Mavjud aholining ijtimoiy qatlamidan qat'iy nazar barchasi ma'lum bir xo'jalik bilan mashg'ul bo'lgan. Hatto boylar orasida aksariyati davlat boshqaruvi tizimida yuqori lavozimlarni egallagan va shu bilan birga o'z mulklarini boshqarishda faol ishtirok etgan. Foydali ish qilish sharaflari burch hisoblanar ediki, har bir sulton qaysidir hunarni egallashi kerak edi. Xususan sultonlar faqatgina davlat ishi bilan band bo'lmay, turli mehnatlarni amalga oshirishgan. Masalan: Mehmet I kamon torlari yasagan, Mehmet II bog'dorchilikka mehr qo'ygan, Salim I va Sulaymon I zardo'z edi. Selim II ziyoratchilarning tayog'i uchun yarim oy yasagan, Murod III o'q yasagan, Mehmet III va Ahmad I kamonchilar uchun o'q va barmoq uzuklari yasagan, Mehmet IV shoir bo'lgan va hatto o'zining harbiy yurishlarini she'r bilan tasvirlagan¹. Bu ham imperiyada hamma mehnat bilan band bo'lganligidan dalolat beradi. Sofiyadan janubda joylashgan kichik shaharcha Samakarada armiya uchun belkurak, langar, taqa, mix va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan 17 ta zavod bor edi. To'qimachilik ishlab chiqarishning muhim qismini manufaktura egallagan, chodirlar, arqonlar va yelkanlar uchun ayvonlar, harbiy kiyimlar uchun matolar ishlab chiqarish, teri va

¹ Рафаэла Льюис. Османская Турция. Москва.: - Центрполиграф, 2004.

mo'ynali buyumlar, egar va poyabzallar ham asosan harbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan. Topxanda yirik to'p quyish zavodi joylashgan bo'lib, u yerda Sulton qo'shini uchun og'ir artilleriya qurollari ishlab chiqarilar edi. Boisi harbiy soha ancha rivojlangan, xususan buni biz yanicharlar guruhidan ham bilishimiz mumkin². Bundan tashqari mamlakatning barcha viloyatlari oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Natijada, oziq-ovqat, ayniqsa, shaharlarda ancha arzon va ko'p edi. Ba'zi hududlar faqat oziq-ovqat ishlab chiqargan. Imperiya shu qadar keng ediki va shu qadar xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqardiki, u hashamatli tovarlardan tashqari importga unchalik ehtiyoj sezmasdi. Imperiya hududi dengizlar bilan o'ralganligi bois baliqchilik ham keng rivojlangan. Kuzdan boshlab o'n hafta davomida fonarli qayiqlar Qora dengizning sovuq suvlaridan Bosfor bo'g'ozini harakatlanayotgan baliqlarni ushlagan. Ammo baliq bozorlari shaharlarning eng xunuk joylari edi: qiyalikli iflos ko'chalar savat bilan o'ralgan edi, ulardan chidab bo'lmas badbo'y hid taralardi. Skumbriya kabi kichikroq baliqlar uzunligi bo'ylab kesilgan va quyoshda quritilishi uchun osib qo'yilgan, boshqalari qish uchun tuzlangan; Midiya chig'anoqlari kundalik foydalanishda o'yilgan yog'och buyumlarni bezash uchun past sifatli marvarid va marvarid sochilishiga maydalangan. Saljuqiylar davrida yog'och o'ymakorligi texnikasi mavjud bo'lib, uning ko'plab go'zal namunalari masjidlar va boshqa binolar eshiklarida, minbarlarda va Qur'on stendlarida saqlanib qolgan. Saljuqiylar davrida ular juda uzun zanjirlarga osib qo'yilgan yog'li lampalar uchun ajoyib bronza ushlagichlar yasadilar. O'sha davrdagi gilamchalar tinch tonlarda bo'lib, ularning ranglari ko'k, qizil va yashil ranglar bilan chegaralangan. Seramika juda rivojlangan, garchi u ranglarning xilma-xilligi bilan farq qilmasa ham, asosiy mahsulotlar firuza, azur, qora va jigarrang edi. Moviy plitkalar ko'pincha binolarning tashqi qismini bezash uchun ishlatilgan. Ulardan biriga Koniya'dagi raqsga tushgan darveshlar tariqati asoschisining peshtoqi gofirovka qilingan maqbarani yorqin misol qilib keltirish mumkin. Qadimgi mutaxassislarining bezak ishlari Usmonli turklari tomonidan juda qadrlangan: geometrik va gul naqshlari bilan qoplangan eski panellar, odamlar va hayvonlarning stilize qilingan figuralari saljuqiylar davrining eski binolari devorlaridan ehtiyotkorlik bilan olib tashlangan va saroy xonalarini bezashda ishlatilgan. Turklarning ko'chishi davrida ko'plab san'atkorlar va hunarmandlar qo'shni mamlakatlarga kelib o'rtnashib, o'z mahoratlarini Fors, Iroq, Misr va Suriyaga yetkazganlar. Ular Konya va ko'plab yangi shaharlar qurilishiga hissa qo'shdilar. O'z navbatida, Damashq, Halab, Samarqand va boshqa ko'plab Sharq madaniyati markazlaridan hunarmandlar kelishgan, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar va

² Аствацатурян Э.Г. Турецкое оружие. Атлант, 2002.

o'ziga xos ish uslublarini olib kelgan. Faoliyatning barcha sohalaridagi hunarmandlar va mehnatkashlar, jumladan, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, ayniqsa Sulaymonning oltin davrida, Istanbulni ulug'lash maqsadida birgalikdagi ishlarga jalb qilingan va homiylikdan bahramand bo'lgan. Dekorativ san'at ham rivojlangan. Shiftlar bezaklar, o'yilgan va rang-barang naqshlar, zargarlik buyumlari bilan boy bezatilgan. Masjidlardagi gumbazlarning ichki oqlangan devorlari nosimmetrik va muntazam ravishda joylashgan naqshlar bilan qoplangan, ular ochiq rangli bo'yoq bilan surtilgan. Xususiy uylarda ko'k shiftlarni bezash mumkin edi. Dastlab xalq hunarmandchiligi bo'lgan gilamdo'zlik ishlab chiqarishning yuksak taraqqiy etgan tarmog'i va haqiqiy san'atga aylandi. Ko'p yillar davomida gilam naqshlari nisbatan o'zgarmas va sodda bo'lib qoldi, ular aniq naqsh, juda qo'pol trikotaj va qattiq tugunlar bilan ajralib turardi. Keyinchalik, Usmonlilarning Ozarbayjon va Misrga kengayishi natijasida shaharlar o'rtasida yaqinroq aloqalar o'rnatilgach, turk to'quvchilari yangi hunarmandchilik usullarini o'zlashtirdilar. Turk gilamlariga o'ziga xos rang bergan Forsdan kelgan qizil sabzavot bo'yog'i qattiq himoyalangan sirga aylandi. Gilam gazlamalarini o'rash va to'qish uchun ipak yoki jun ishlatilgan, har doim jun yoki paxta iplari yumshoq qoziqli, uchlari birlashtirilib, yangi tugun hosil qilingan. Musiqa, ehtimol, barcha san'at turlaridan, turli sinflar tomonidan eng ko'p talab qilinadigani edi. Sultonning mulozimlari orasida har doim mumtoz musiqani ijro etishi kerak bo'lgan qo'shiqchi va sozandalar yoki harbiy orkestrlarda ijro etadigan mehterlar bo'lgan. Klassik asarlarni ijro etish, xonanda va raqqosalarga hamrohlik qilish uchun ular asosan keman, skripka, qonun, nay, yoki qamish nay turidan foydalanganlar. To'ylarda, marosimlarda, ayrim raqslarda qo'shimcha ravishda har xil o'lchamdagi turli zarbli cholg'u asboblari, galvanizli ulkan li-taurlardan tortib, bir yoki ikki tomoniga qo'y yoki echki terisidan yasalgan terilar cho'zilgan qum soati shaklidagi sopol idish — darbukagacha foydalanilgan. Keman yarim sharsimon tovushli tanasi (dastlab baliq terisi cho'zilgan va uzun bo'yinli kokos qobig'ining yarmi) skripkaning bir turi edi. Bu asboblarning aksariyati ikkita torli bo'lib, ularning har biri 60 ta ot junidan iborat edi. Qamish yoki qamishdan yasalgan har xil turdagi va o'lchamdagi ko'plab naylar bor edi. Saroy aholisini bomdod namoziga undash uchun cholg'u asboblari chalishni o'z zimmasiga olgan Sulton harbiy orkestri 90 nafar sozandadan, 45 nafar Sadr vazir harbiy orkestri va 30 nafar sozandadan iborat Kaputan Poshoda iborat edi. Xulosam o'rnida, Usmoniylar imperiyasining faqatgina bir sohasida ilmiy izlanishlar olib borishning o'zi tarixning hammaga ham ma'lum bo'lmagan, qiziqarli faktlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni beradi. O'sha davrda yaratilgan mahobatli qurilish inshootlari bugungi kunda ham ko'plab insonlarning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda. Bu bevosita o'z davrining mashhur ustalari tomonidan bunyod etilgan edi. O'rta

asrlarda bunaqangi qurilish qilinishing o'zi diqqatimizni jalb qilmasdan qolmaydi. Harbiy jihatdan esa hech bir davlatda ko'zga ko'rinmaydigan yanicharlarning mavjudligi va hattoki ayrim manbalarda aytilishicha, g'arb davlatlarining ushbu harbiy bo'linmadan qo'rqanliklari ham buning naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi. Hunarmandchilik turlarining xilma-xilligi mamlakatda madaniyat, san'at gurkirab rivojlanganidan dalolat beradi. Meni fikrimcha, Turkiyaning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishida bevosita imperiyaning o'sha davrda rivojlangan hunarmandchilik turlari, mahobatli me'morchilikning rivojlanishi, sultonlarning yuritgan oqilona siyosati, hatto ularning ham ma'lum hunarmandchilik sohasi bilan shug'ullanishi ham ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рафаэла Льюис. Османская Турция. Москва.- Центрполиграф,2004
2. Аствацатурян Э.Г. Турецкое оружие. Атлант,2002
3. Керолайн.Ф. История Османской Империи. Москва,2009

TURLI MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISH DARAJASI

Allamurodova Xonzoda

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti bank ishi va audit yo'nalish 1 22 guruh
ikkinchi bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Raqamli iqtisodiyot juda muhim o'sishni ta'minlovchi zarur tarmoqdir. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning ta'siri axborot tovarlari va xizmatlaridan tashqari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga, umuman, turmush tarziga ham kiradi. Shuningdek, mobil qurilmalarning rivojlanishi jamiyatda internet qamrovini ancha kengaytirdi. Binobarin, raqamli iqtisodiyotda yuzaga keladigan raqobat muammolari raqobat masalalarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli bozorlarda raqobat muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Katta raqamli bozorlardagi raqobat ko'pincha o'ziga xos shaklga ega. Ushbu maqolada mamlakatlar rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning o'ri, uning xususiyatlari va raqamli rivojlangan mamlakatlar darajasi haqida kengroq yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, AKT, biznes, savdo, raqobat, rivojlanish, iqtisodiyotning o'ri.*

***Abstract.** The digital economy is an important sector that is driving significant growth. In addition, the impact of the digital economy extends beyond information goods and services to other sectors of the economy, and to the way of life in general. In particular, the development of mobile devices has greatly expanded the reach of the Internet in society. Consequently, competition issues arising in the digital economy are becoming increasingly important in competition matters. Competition in digital markets has certain characteristics. Competition in large digital markets often takes a unique form. This article covers the role of the digital economy in the development of countries, its characteristics and the level of digitally developed countries.*

***Keywords:** Digital economy, ICT, business, trade, competition, development, role of economy.*

Kirish.

Raqamli iqtisodiyot dunyoda innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi, elektron tijorat, global ishlab chiqarish zanjirlarida ishtirok etish orqali savdo ufqlarini kengaytiradi. Boshqa tomondan, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi raqamli

muammolar, kiberxavfsizlik muammolari va atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq yangi tahdidlar va sayyoraviy xavflarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro elektraloqa ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda uy xo'jaliklarining 81,3 foizi, MDHda 60,1 foizi, rivojlanayotgan mamlakatlarda 34,1 foizi, kam rivojlangan mamlakatlarda esa 6,7 foizi uy xo'jaliklari internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatiga ega.

Raqamli iqtisodiyot deganda nimani tushunamiz?

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishda asosiy omil bo'lgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- iqtisodiy faoliyat "raqamli" iqtisodiyot platformalariga yo'naltirilganligi;
- shaxsiylashtirilgan xizmat modellari;
- ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning bevosita o'zaro ta'siri;
- birgalikdagi iqtisodiyotning tarqalishi;
- alohida ishtirokchilar hissasining muhim roli Raqamli rivojlanayotgan zonalarining darajalarga ko'ra turlari:

Liderlar: Bu zonaga raqamlashtirishning yuqori boshlang'ich darajasi va ushbu sohadagi kuchli rivojlanish sur'atlari bilan ajralib turadigan iqtisodiyotlar kiradi.

Bu yerda, ayniqsa, uchta davlat ajralib turadi: Janubiy Koreya, Singapur va Gonkong. Estoniya, Tayvan va BAA kabi bir qancha boshqa iqtisodlar qatorida ular innovatsiyalarga moslashish va institutsional yordam ko'rsatib, doimiy ravishda bunday indekslar bo'yicha yetakchilar qatoriga kiradi. Qizig'i shundaki, AQSh raqamli evolyutsiya bo'yicha Singapurdan keyin ikkinchi o'rinda turadi: bunday hajm va murakkablikdagi iqtisodiyot uchun ajoyib o'sish sur'ati.

Asosiy qism.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot - bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish ob'ekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot - bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va

yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Raqamli bozorlarda raqobat muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Katta raqamli bozorlardagi raqobat ko'pincha o'ziga xos shaklga ega. Birinchidan, biznes modellari yoki platformalar o'rtasidagi raqobat biznes modeli raqobatidan ko'ra muhimroqdir. Boshqacha qilib aytganda, Internet platformalarining ustunligi yoki hatto monopoliyasi deyarli har doim biznes muvaffaqiyatini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, raqamli bozorlar ko'pincha kuchli tarmoq effektlari va miqyos iqtisodlari bilan ajralib turadi, bu raqobatning bu xususiyatini ustunlik orqali kuchaytiradi. Uchinchidan, ko'plab raqamli bozorlar ikki tomonlama, shuning uchun kamida ikkita foydalanuvchilar guruhi raqamli platformadan foydalanishdan foyda ko'radi. Masalan, qidiruv tizimlari Internetdagi ma'lumotlarga kirish uchun ham, reklama beruvchilar tomonidan ham tomoshabinlarga kirish uchun ishlatiladi. To'rtinchidan, raqamli bozorlar investitsiyalar va innovatsiyalarning yuqori sur'atlari bilan ajralib turadi, bu esa sanoatda jadal texnologik taraqqiyotga olib keladi. Raqamli bozorlardagi raqobat tarixan ko'pincha tsiklik bo'lib kelgan. Muvaffaqiyatli firma sezilarli bozor kuchiga ega bo'lishi mumkin, ammo bu ustunlik innovatsiyalarning keyingi tsikliga nisbatan zaif bo'lishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot hamma narsani qamrab oladi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan,

raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, bunda iqtisodiy

xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi.

Raqamli iqtisodiyot

kontsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi.

“Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlarda axborot

texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs

hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi”.

[6]

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob'ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o'stirish, faoliyat

shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib

borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi,

shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi. [14] Davlatning o'z fuqarolari uchun elektron

xizmatlarni ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi bo'lib

hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

Raqamli ma'lumotlar qimmatbaho iqtisodiy resurs hisoblansa-da, ular raqamli tafakkurga aylanganidagina

foyda keltiradi. Raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi bilan raqamli platformalarni yaratish va tez sur'atlarda

o'sib borayotgan raqamli ma'lumotlarni monetizatsiya qilish muammolari vujudga kelmoqda. Bunda yangi

qiymat yarata olish yo'llarini, mazkur jarayonlardagi to'siqlarni bartaraf etish vositalarini aniqlash muhimdir.

Bu qiymatni yaratish va tarqatish salohiyatini, qiymatni yangilash, boshqarish hamda qiymatni qo'lga kiritish

shakllarini tushunish imkonini beradi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida hozir butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT vositalaridan

foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli

raqobat tug'dirmoqda. Prognozlariga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano

va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu

munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab

chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni

boshdan kechiradi. Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'lga bosqichma-bosqich chiqish

uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmogda:

- axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal

xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar kontseptsiyalarini tatbiq etish;

- yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);
- o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqlli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;
- outsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;
- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilarning barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar

integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi.

Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish,

kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lapidus L.V. Sifrovaya ekonomika. - M.: Infra-M, 2019.
2. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn
3. texnologiyalar. - T.: TMI, "Iqtisod-Moliya", 2019.3. БМТ Минг йиллик маърузаси. - Тошкент, 2003.
4. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi zamonaviy trendlar: tajriba, muammo va istiqbollar. // Ilmiyamaliy anjuman ma'ruza tezislari to'plami. 2020 yil 14 oktyabr. – Toshkent. 2020.
5. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha boshqarmasi tadqiqotlari
6. //https://research.un.org/en/docs/reports
7. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyasi
8. https://cyberleninka.ru/article/n/turli-mamlakatlarda-raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-darajasi

TISHLARNING TUZILISHI VA SHAKLLANISHI

Batirova Shaxlo

Toshkent tibbiyot akademiyasi
Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Tishlar inson organizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ovqatni maydalash, talaffuzni shakllantirish va estetik ko'rinishni ta'minlash kabi asosiy vazifalarni bajaradi. Tishlarning tuzilishi va shakllanish jarayoni (odontogenez) murakkab biologik jarayon bo'lib, bir necha bosqichda amalga oshadi. Ushbu maqolada tishlarning tuzilishi, ularning rivojlanish bosqichlari va funksional ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'z: embrion, kesuvchi, pulpa, periodontal, dentin, ildiz, keries, flyuoroz

Tish — odamlarga ovqatni tishlab uzib olish, chaynash va tutib turish uchun xizmat qiladi va bundan tashqari, ba'zi tovushlarni talaffuz etishda ham qatnashadi. Embrional rivojlanish davrida tish epitelial burmalar — tish plastinkalaridan hosil bo'ladi. Homiladorlikning 5-haftasidayoq homilada tish shakllana boshlaydi. Tishlar ketma-ket joylashib, tish yoyi yoki qatorini hosil qiladi. Katta yoshdagi kishilarda har bir tish qatorida shakli va ildizlar soni bilan bir-biridan farq qiladigan 16 ta tish: 4 ta kesuvchi, 2 ta qoziq, 4 ta kichik jag' va 6 ta katta jag' tishlar joylashgan. Yuqori va pastki tish qatorlari ma'lum munosabatda jipslashadi. Odatda, sut va doimiy tishlar bo'ladi. Sut tishlari 20 ta, doimiy tishlar 32 ta bo'ladi. Sut tishlar doimiy tishlar shakliga o'xshash, lekin kichik va ildizi birmuncha kaltaroq, emali ko'kish, kichik oziq tishlari bo'lmaydi; ular emizikli yoshda yorib chiqadi va doimiy tishlar bilan almashguncha, ya'ni 12— 13 yoshgacha turadi. Bolalar tishining shakllanishida ayolning homiladorlik davrida sifatli ovqatlanishi va bolalarni to'g'ri ovqatlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tishlar shakliga ko'ra 4 xil:

Kesuvchi tishlar-oldingi tishlar bo'lib, ovqatni kesish uchun xizmat qiladi. Ular tekis va ponasimon shaklda bo'lib, 1 ildizli.

Qoziq tishlar- uzun, o'tkir uchli, 1 ildizli bo'lib, oziqni qirqish vazifasini bajaradi.

Kichik oziq tishlar-yassi yuzaga ega, 1 ildizli, chaynash vazifasini bajaradi.

Katta oziq tishlar-kengroq va yassi yuzaga ega, 1 necha tish bo'rtiqlari mavjud, 2-3 ildizli. Ovqatni chaynash vazifasini bajaradi.

Tish tuzilishi: tish toji, bo'yin va ildizidan iborat. Toj va ildizni tish bo'yni chegaralab turadi. Tish bo'yni toraygan bo'lib, uning atrofidagi shilliq qavat milk bilan o'rab olingan. Toj va ildiz ichida tish bo'shlig'i hamda ildiz kanallari bor. Kanal ildiz oxirida teshik orqali tish bo'shlig'iga ochiladi, bu teshik orqali tish bo'shlig'iga qon tomirlari va nerv tolalari o'tadi. Tishning asosiy qismini dentin tashkil etadi. Toj kismi emal, ildizi suyak to'qima (sement) bilan qoplangan. Tish ildizi va suyak katakchasi orasida uni ushlab turuvchi boylamlar (paylar) bor; ularni ildiz qobig'i yoki periodont deyiladi. Periodont boylamlari tishni jag' suyagiga ulaydigan elastic tolalardan iborat bo'lib, chaynash paytida tishga bosim tushganda uni saqlashga yordam beradi. Periodontdan tish bo'shlig'iga tishni oziqlantiruvchi tomirlar va nervlar kiradi. Tish ichidagi bo'shliqda tish eti yoki pulpa bilan to'lgan ildiz kanali bor. Pulpa g'ovak biriktiruvchi to'qima, tomirlar, nervlar va har xil hujayralardan tuzilgan. Pulpada tishdagi qattiq to'qimalarning moddalar almashinuviga yordam beradigan hujayralar — odontoblastlar bor. Ulardan kanalchalar orqali dentin ichiga kirib boruvchi shoxchalar (tarmokchalar) chiqadi.

Tish kurtagida birinchi dentin, keyin emal hosil bo'ladi. Avval ular, asosan, organik moddalardan iborat o'ziga xos to'qimadan tuzilgan bo'lib, keyinchalik homiladorlikning 5-oyi oxiriga kelib, bu oraliq moddalarga mineral moddalar, asosan, kalsiy tuzlari singiy boshlaydi. Mineral tuzlar kristall holida o'tirib, emal va dentinga qattqlik beradi. sut hamda doimiy tishlarning dentin va emaldan tuzilgan koronkasi tish chiqishidan oldinoq shakllanib bo'lgan bo'ladi. Emal juda qattiq bo'lib, tarkibida 96% gacha, dentinda esa 72% cha anorganik (mineral) moddalar bor. Tish chiqishi ma'lum muddat va tartib asosida bo'ladi. Bolalarda birinchi bo'lib pastki, keyin yuqori kesuvchi tishlar chiqadi (6—8 oygacha), bola 8—12 oyligida avval pastki yon, keyin yuqorigi yon kesuvchi tishlar chiqadi. So'ngra tartib bilan birinchi oziq (12—16 oy), qoziq (16—20 oy) va ikkinchi oziq tish (20—30 oy) chiqadi. Sog'lom bolalarda bu muddat bir oz ilgariroq yoki kechroq kechishi mumkin. Ko'pincha bola 2 yasharligida 20 ta sut tish chiqib bo'ladi. Tish chiqishi fiziologik jarayon bo'lib, odatda, og'riq bilan kichadi. Bu davrda bola isitmalashi, milki yallig'lanib, qichishishi mumkin. U bezovta bo'la boshlaydi va qattiq narsalar (qoshiq, suyakdan qilingan va boshqalar)ni milkiga ishqalagisi keladi, so'lak bezlarining faoliyati tezlashganligi tufayli ko'p so'lak ajrala boshlaydi, bolada betoblik alomatlari paydo bo'lsa, darhol vrachga ko'rsatish zarur.

Doimiy tishlar 5—6 yoshdan chiqa boshlaydi; dastlab birinchi katta oziq tish chiqadi. 6—8 yoshda markaziy kesuvchi tish (oldin pastki, keyinyuqorigi), 9—10 yoshda yon kesuvchi tishlar, 12—14 yoshda qoziq va kichik oziq tish sut tishlar o'rniga almashinib chiqadi. Ikkinchi katta oziq tish 14 yoshda, aql tish esa, odatda, 16 dan 25 yoshgacha chiqadi.

Doimiy tishlar chiqishidan oldin sut tishlar ildizi so'ra boshlaydi, bu chiqib kelayotgan doimiy tishlar koronkasi tegib turgan yerdan boshlanadi. Atrofidagi to'qimalar shishadi. Tish shikastlanganda o'z vaqtida stomatolog vrachga murojaat qilish kerak. Tish yangi shikastlanganda davo qilinsa, uning ildizi saqlab qolinadi.



Tish kasalliklaridan eng ko'p tarqalgani uning chirishi-kariesdir. Tish kasalliklarining vujudga kelishida tishda hosil bo'ladigan qatlamlar muhim rol o'ynaydi. Tish chirishi o'z vaqtida davolanmasa, pulpaga utib, uni yallig'lantiradi. Keyinchalik yallig'lanish tish atrofidagi to'qimaga o'tadi. Hatto chirib yemirilgan tishni muddatidan oldin olib tashlash bola jag'ining o'sishini tuxtatadi va tish rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Agar tish atrofida yallig'lanish bo'lsa, ko'pincha doimiy tishlar kurtagi shikastlanadi. Lekin doimiy tishlarning chiqishiga sut tishlar to'sqinlik qilayotgan bo'lsa, ularni olib tashlash uchun stomatologga murojaat qilish kerak. Doimiy tishlarni olib tashlash esa organizm uchun zararsiz deb bo'lmaydi. Tishni davolab bo'lmagan takdirdagina olib tashlanadi.



Tish chirishidan tashqari flyuoroz, tishning patologik siyqalanishi va gipersteziyasi (sezuvchanligi ortishi) kabi kasalliklari ham uchraydi.

Tish flyuorozi ichiladigan suvda fluor miqdori ortib ketishi bilan bog'lik bo'lib, uning oldini olish uchun suv fitorsizlantiriladi.

Tishni va og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarish qilish tish kasalliklarining oldini olish va o'z vaqtida davolash imkonini beradi. Yilda 2 marta stomatolog vrachga ko'rinib, u tavsiya etgan turli profilaktik chora va davoni beqamu-kust bajarish tish holatini yaxshi saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tishlarning klinik formulasi:

Raqamlash	O'ng	Chap
Yuqorigi	18,17,16,15,14,13,12,11	21,22,23,24,25,26,27,28
Pastki	48,47,46,45,44,43,42,41	31,32,33,34,35,36,37,38

ЖИГАР САРАТОНИНИНГ ЭРТА ДИАГНОСТИКАСИ: УСУЛЛАР ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Xudoyorova Ummulaylo Shuxrat qizi
Термиз Иқтисодиёт ва Сервис
Университети, Тиббиёт факультети

Мавзунинг долзарблиги: Жигар саратони (гепатоцеллюляр карцинома, ГСК) дунёда энг кенг тарқалган ва ўлим даражаси юқори бўлган онкологик касалликлардан бири ҳисобланади. Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилоти (WHO, 2022) маълумотларига кўра, ҳар йили 800 000 дан ортиқ бемор жигар саратонидан вафот этади. Касалликнинг кеч аниқланиши унинг даволаш имкониятларини чеклайди. Шу сабабли, эрта ташхис қўйиш ва унинг самарадорлигини ошириш бугунги тиббиётда муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Тадқиқот мақсади: Жигар саратонини эрта босқичда аниқлаш учун энг самарали биомаркерлар ва тасвирий диагностика усулларини ўрганиш. Ликвид биопсия ва сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш имкониятларини таҳлил қилиш. Эрта ташхис қўйиш орқали касалликни даволаш самарадорлигини ошириш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Тадқиқотда биомаркерлар ва инструментал ташхис усулларининг самарадорлиги ўрганилди.

1. Биомаркерлар асосида лаборатор ташхис

Алфа-фетопро테인 (AFP) – энг кўп қўлланиладиган биомаркер, аммо унинг сезгирлиги чекланган. Дес-гамма-карбокситромбин (DCP) – жигар саратони учун хос биомаркер. Голги протеин-73 (GP-73) – AFP билан таққослаганда юқори сезгирликка эга. МикроРНК (miRNA) тестлари – қон плазмаси орқали саратонини эрта босқичда аниқлайди.

2. Инструментал ташхис усуллари

Ультрасонография (УЗИ) – иқтисодий самарали, аммо сезгирлиги паст. Магнит-резонанс томография (МРТ) – ўсмаларнинг қон билан таъминланишини баҳолаш учун энг аниқ усул. Компьютер томография (КТ) – уч фазали КТ ёрдамида саратонини аниқ ташхислаш имконини беради. Жигар эластографияси (Fibroscan) – жигар фиброз даражасини баҳолайди.

3. Молекуляр-биологик тестлар ва сунъий интеллект диагностикаси

Ликвид биопсия – қонда айланиб юрүвчи саратон хужайралари ва ДНК фрагментларини аниқлайди. Сунъий интеллект (AI) – тасвирий текширув натижаларини таҳлил қилишда юқори аниқликка эга.

Тадқиқот натижалари: Биомаркерларнинг сезгирлиги: AFP – 50-60%, GP-73 ва DCP билан комбинацияда – 85-90%. Инструментал ташхис усулларининг аниқлиги: МРТ ва КТ – 80-95%, AI диагностикаси – 99% аниқликка эга. Ликвид биопсия – жигар саратонининг эрта босқичларини аниқ ташхислашда истиқболли технология.

Хулоса: Жигар саратонини эрта ташхислаш касалликни даволаш имкониятларини сезиларли даражада оширади. GP-73, DCP ва miRNA тестлари диагностикада AFP билан таққослаганда аниқроқ натижалар беради. МРТ ва КТ жигар саратонини аниқлашда энг ишончли усуллар ҳисобланади. Сунъий интеллект ва ликвид биопсия келажакда диагностика жараёнини янада самарали қилади.

**TARKIBIDA BIOMETALL SAQLOVCHI DORIVOR MODDALAR VA
ULARNING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI****Xolboboyeva Madina Maxmarajab qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tibbiyot fakulteti talabasi

Email – madinaxolboboyeva9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarkibida biometall saqlovchi dorivor moddalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Biometallar inson organizmi uchun muhim bo'lib, turli kasalliklarni davolash va oldini olishda samarali hisoblanadi. Maqolada temir, rux, mis, magniy, kalsiy, yod, vismut, kobalt, selen, platina va boshqa metallar saqlovchi dorilar va ularning farmakologik ta'siri yoritilgan. Biometallarning dorivor xususiyatlari, foydalari hamda ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi lozimligi haqida ham ma'lumot keltirilgan. Maqola ilmiy manbalarga asoslangan bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), PubMed, NIH va boshqa xalqaro nashrlardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda yozilgan. Ushbu tadqiqot biometallar asosidagi dorilarni samarali ishlatish bo'yicha tushunchalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Biometallar, dorivor moddalar, tibbiyot, farmakologiya, temir preparatlari, rux preparatlari, magniy preparatlari, kalsiy preparatlari, yod preparatlari, platina dorilari, oltin birikmalari, mis preparatlari, selen, kobalt, litiy, vismut, natriy, kaliy, gemoglobin, osteoporoz, kamqonlik, immunitet, saraton terapiyasi, yurak kasalliklari, metabolizm, asab tizimi.

Asosiy qism. Biometallar — bu tirik organizmlarda muhim biologik funksiyalarni bajaruvchi metall elementlardir. Ular ko'plab dorivor moddalar tarkibiga kirib, tibbiyotda keng qo'llaniladi. Quyida tarkibida biometall saqlovchi dorivor moddalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

1. Temir (Fe) saqlovchi preparatlar

Temir organizmda gemoglobin sintezi uchun zarur bo'lib, uning yetishmovchiligi kamqonlikka olib keladi. Temir preparatlari kamqonlikni davolashda qo'llaniladi.

2. Rux (Zn) saqlovchi preparatlar

Rux ko'plab fermentlar tarkibiga kiradi va immun tizimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Rux preparatlari teri kasalliklari, yaralar va immunitetni oshirishda qo'llaniladi.

3. Mis (Cu) saqlovchi preparatlar

Mis qon hosil bo'lish jarayonida ishtirok etadi va asab tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Mis preparatlari kamqonlik va asab tizimi kasalliklarida qo'llaniladi.

4. Magniy (Mg) saqlovchi preparatlar

Magniy mushaklar va asab tizimi faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Magniy preparatlari mushak spazmlari, yurak ritmi buzilishlari va asabiylikni kamaytirishda qo'llaniladi.

5. Kalsiy (Ca) saqlovchi preparatlar

Kalsiy suyak va tishlarning mustahkamligi uchun zarur. Kalsiy preparatlari osteoporoz va suyak sinishlarini oldini olishda qo'llaniladi.

6. Lity (Li) saqlovchi preparatlar

Lity asab tizimi faoliyatini tartibga solishda ishtirok etadi. Lity preparatlari depressiya va bipolyar buzilishlarni davolashda qo'llaniladi.

7. Vismut (Bi) saqlovchi preparatlar

Vismut oshqozon-ichak kasalliklarida antiseptik va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Vismut preparatlari oshqozon yarasi va gastritni davolashda qo'llaniladi.

8. Yod (I) saqlovchi preparatlar

Yod qalqonsimon bez gormonlari sintezi uchun zarur. Yod preparatlari yod yetishmovchiligi va bo'qoq kasalligini oldini olishda qo'llaniladi.

9. Brom (Br) saqlovchi preparatlar

